

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

**Mavzu: Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik
masalalari**

Bajardi: 4 kurs talabasi Umarova S.

***Ilmiy rahbar: yuridik fanlari nomzodi,
dotsent Muqimova M.Z.***

S A M A R K A N D – 2 0 1 3

REJA:

KIRISH

1-BOB. OILAGA QARSHI JINOYATLAR TIZIMIDA FARZANDLIKKA Olish SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA UMUMIY TAVSIFI

- 1.1. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar tushunchasi, rivojlanish tarixi
- 1.2. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik tushunchasi, umumiy tavsifi
- 1.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlikni liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari
- 1.4. Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik masalalari

2-BOB. FARZANDLIKKA Olish SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR TUSHUNCHASI, TURLARI

- 2.1. Kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik.
- 2.2. G'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik.
- 2.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi uchun javobgarlik.
- 2.4. Farzandlikka olish sirini oshkor qilishning oldini olish choralari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan har qanday davlat va jamiyat albatta, farzandlar ta'lim-tarbiyasi, ularni har tomonlama komil inson bo'lib voyaga yetishi va tarbiyalanishlari haqida qayg'urishi tabiiy. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlar albatta, hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz¹.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab har bir yilning dolzarb yo'nalishlari, mazkur yilda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muammo va vazifalardan kelib chiqqan holda nomlanib kelmoqda. Jumladan, 2000 yil – Sog'lom avlod yili, 2001 yil – Onalar va bolalar yili, 2008 yil – YOshlar yili, 2010 yil – Barkamol avlod yili deb nomlandi. Bu yillarning nomlanishi bir-biriga hamohang, mazmun mohiyati jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'langanligini e'tirof etish lozim. Eng muhimi, barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarimizga nafaqat bilim berish, balki ularni ijtimoiy hayotning turli jabhalariga – madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, fan va boshqalarga qiziqtirish muhim hisoblanadi. YOsh avlodni munosib hayot kechirishlari, ta'lim tarbiya olishlarini kafolatlovchi huquqiy asoslarni takomillashtirish bugungi kunda oldimizda turgan muhim vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va oila qonunchiligiga muvofiq voyaga yetmagan bolalar bir qator mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lib, ushbu huquqlar qonun asosida himoya qilinadi va kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida

¹ **Karimov I.A.** O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, 2011.

«farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deb belgilab qo'yilgan. Davlat va jamiyat etim hamda ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Albatta, Asosiy qomusimizda ushbu normalarning mavjudligi boshqa qonun va qonun osti hujjatlarini hayotga tatbiq etishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, har bir inson go'dak sifatida dunyoga keladi, oila muhitida tarbiyalanadi va voyaga etadi. Oila – bu yashash muhiti, murakkab o'zaro munosabatlar majmui, inson shakllanuvchi makon. Bola oilada o'zini muhofazalangan va baxtiyor sezadi. Biroq, ba'zida turli xil sabablarga ko'ra bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'ladilar va ularni yana qaytadan tabiiy oila muhitiga qaytarishning huquqiy shakli bu farzandlikka olishdir.

Farzandlikka olish instituti tarixan mavjud bo'lgan institut hisoblanadi. Qonunchilikda o'zining huquqiy asoslariga ega, biroq bugungi kunda ushbu institutning oila huquqida bo'lgan o'rniga yangicha kontsepsiya zarur. O'zbek xalqi o'zining boy tarixiga va qadriyatlariga ega. Oila qonunchiligida farzandlikka olishga oid normalarda o'zgarishlar ro'y berdi. Farzandlikka oluvchilarga nisbatan muayyan talablar belgilangan. Ularning moddiy-maishiy sharoitlari, axloqiy-ma'naviy qarashlarini inobatga olish zaruriyati tug'ildi. Farzandlikka olingan bolalarning hayotini zimdan kuzatib borish mexanizmi monitoringi joriy etilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va milliy mentalitetimizga mos holda umumlashtirishga zaruriyat mavjud.

Voyaga yetmagan bolalar ota-ona qaramog'idan subyektiv va obyektiv sabablarga ko'ra mahrum bo'lishlari mumkin. Subyektiv sabablarga ota-onaning o'z majburiyatlarini bajarmasligi, jumladan o'z farzandlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib bermasligi, ota-onalik huquqidan mahrum etilishi kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Obyektiv sabablarga esa, ota-onaning o'limi, ularning og'ir

kasallikka chalinishi, turli xil baxtsiz hodisalar, muomala layoqatini yo'qotishi, favqulodda vaziyatlarda (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar jarayonida) bolani yo'qotib qo'yishi va h.k.larni ko'rsatib o'tish mumkin. Yuqoridagilar shundan dalolat beradiki, bolalarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishlari muammosi jiddiy va uning oqibatlari haligacha to'liq anglab etilgani yo'q. Shu sababli mazkur sohada huquqiy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda Respublikamizda 93 ta Mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Birgina Toshkent shahrida joylashgan mazkur turdagi muassasalarda 3300 dan ortiq voyaga yetmagan bolalar tarbiyalanmoqdalar¹. Respublikamiz viloyatlarida xususan, Farg'ona viloyati bo'yicha 2008 yil davomida 466 nafar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar aniqlangan. Shundan 137 nafari farzandlikka, 69 nafari vasiylikka, 40 nafari homiylikka olingan, 16 nafari esa, oila tarbiyasiga (patronat)ga berilgan, qolganlari bolalar muassasalariga joylashtirilgan. 2009 yil davomida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar 224 nafari farzandlikka, 196 nafari vasiylikka, 88 nafari homiylikka olingan, 1 nafari esa, oila tarbiyasiga (patronat)ga berilgan.²

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish ota-onasi bo'lmagan yoki turli sabablarga ko'ra ular tarbiyasidan mahrum bo'lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta'minlash, bolalar huquq va manfaatlarini qo'riqlash, ularni jismonan va ma'nau barkamol inson sifatida kamol topishiga imkon yaratadi. Farzandlikka oluvchilar ota-onalik majburiyatini beg'araz bajaradilar hamda ularni ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydilar. O'zaro insoniy muomala muhitida yashash har qanday shaxsning tabiiy ehtiyoji sanaladi va uni to'la-to'kis amalga oshirishda oila

¹ **Dadaboeva J.A.** Farzandlikka oluvchilarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi. //Toshkent, Yosh olimlarning ilmiy maqolalari to'plami. 2010. -№2. -B.28-34.

² **Dadaboeva J.A.** Farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar. //O'zbekiston qonunchiligi tahlili. -Toshkent, 2008. - №3-4. -B.15-18.

muhiti zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olganda farzandlikka olishda bolalarning huquqiy maqomi va bunda ular manfaatlarini himoya qilishning huquqiy masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirda mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoyalash tizimini yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, muayyan darajada qonunchilik tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida farzandlikka olish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, farzandlikka olish bilan bog'liq qator amaliy muammolar bartaraf etilmagan. Farzandlikka olishning bir qator masalalarida bahsli vaziyatlar va noaniqliklar mavjud. Jumladan, farzandlikka olishda navbat kutishlar, mansabdor shaxslarning turli suiiste'molliklar qilishi, farzandlikka oluvchilarga qo'yiladigan ko'plab talablarni ko'rsatish mumkin.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi kamchiliklar, oila qonunchiligida va u bilan bog'liq huquqiy normalarda farzandlikka olish institutining yetarli darajada ishlanmaganligi, mazkur tadqiqot predmetiga nisbatan nazariy qarashlarning yagona emasligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi va farzandlikka olish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlarni chuqur ilmiy tahlil etish orqali huquqiy tartibga solish samaradorligini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda farzandlikka olish institutining nazariy asoslari zaifligi ko'zga tashlanmoqda. Bu holatni ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllari ichida aynan farzandlikka olish institutining afzalliklari chuqur o'rganilmaganligida ham ko'rish mumkin. Farzandlikka olish institutining samaradorligini oshirish, uning normalarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 153-moddasiga ko'ra, «Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi» deb mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka oluvchilarning rozilgisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining rozilgisiz berish taqiqlanadi.

Ma'lumki, sirni oshkor bo'lishi farzandlikka olingan bolaning xarakteriga, farzandlikka olinganlarga nisbatan bo'lgan munosabatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bolalar ruhiyati juda oson ta'sirlanadi, ayrim chuqur ta'surotli bolalar farzandlikka olganlar Bilan aloqasini uzib ketishlari yoki bo'lmasa ular kamgap, begonasirab qolishlari, hattoki o'zlarini o'ldirishlari mumkin. SHu tufayli farzandlikka olishni sir tutilishi, qonun Bilan himoya qilinishi katta hamiyatga egadir.¹

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasida oilaga qarshi jinoyatlar tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi jinoyatlardan biri, ya'ni «farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik» to'g'risidagi normaning aks ettirilganligi ham, davlatimizning oilaning va farzandning manfaatlari, uning ma'naviy rivojlanishini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash kerak.

Ma'lumki, bolalarni farzandlikka olgan shaxslarga davlat alohida ahamiyat beradi. Davlatning bunday g'amxo'rligining boisi shundaki, farzandlikka olish juda kuchli hayajon va ruhiy holat bilan bog'liq bo'lib, farzandlikka olgan shaxslar olingan bolaning haqiqiy otasi va haqiqiy onasi bo'lish maqsadida farzandlikka oladilar.»²

Mamlakatimizda farzandlikka olish ma'muriy tartibda amalga oshirilmoqda. Biroq, hozirgi kunda jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida farzandlikka olish sud tartibida amalga oshiriladi. Farzandlikka olishning sud tartibida amalga oshirilishi farzandlikka oluvchilar, farzandlikka olinuvchilar va uchinchi shaxslarning ham huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi

¹ O'razaliev M.Q. Axloqqa zid qilmishlar. // Hayot va qonun. – Toshkent, 2005. №3. –B. 71-72.

² Narikbaev M.S. Pravovaya oxrana detstva. – Kazaxstan:Almati. 1996. – S.88.

mumkinligi nuqtai nazaridan chuqur ilmiy ishlanmalar mavjud emas. Bu borada har tomonlama chuqur nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, tanlangan *mavzuning dolzarbligi* quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- birinchidan, oilaga qarshi jinoyatlar tizimida ushbu jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari juda kam o'rganilganligi;

- ikkinchidan, ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari maxsus tadqiq etilmaganligi;

- uchinchidan, jinoyatga oid siyosatni liberallashtirish va oilaga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik qoidalarini takomillashtirish zaruriyati bilan belgilanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik, uning oldini olish va unga qarshi kurashishi masalalari Q.R.Abdurasulova, B.J.Ahrorov, YU.M.Karaketov, R.K.Qobulov, E.X.Norbo'taev F.Tohirov, M.H.Rustamboev, M.Usmonaliev A.S.YAkubov, E.X.Hakimov, M.M.Qodirov va boshqalarning ishlarida o'rganilgan..

O'zbekiston Respublikasida tsivist olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, F.M.Otaxo'jaev, M.Vosiqova, G.Inomjanova, A.Yu.Azizova, SH.R.YUldasheva, N.A.Ashurova, Z.Esonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda farzandlikka olish bilan bog'liq ayrim jihatlar yoritilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar farzandlikka olish bilan bog'liq mavjud huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan, bugungacha yaratilgan asarlar mavjud muammolarni echimini berish uchun yetarli emas. Ushbu masalalarning yechimini topish maqsadida mazkur mavzu mustaqil tadqiqot predmeti sifatida olingan.

Bugunga qadar mavjud bo'lgan adabiyotlarda farzandlikka olish bilan bog'liq muammolarning ayrim qirralari o'rganilgan. Hozirgi kunda Oila huquqi

fani doirasida chuqur va zaruriy ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda bu asosda farzandlikka olish yuzasidan yangi g'oyalar va kontseptsiya yaratilishi talab etiladi. Ushbu tadqiqot yuqorida ko'rsatilgan mavjud nazariy-amaliy muammolar bo'yicha bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishida farzandlikka olish tushunchasi, farzandlikka olish huquqiy asoslarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar, farzandlikka olishni rasmiylashtirish tartibi, huquqiy oqibatlari, farzandlikka oluvchining farzandlikka olinganlarga nisbatan huquq va majburiyatlari, farzandlikka olingan bolalarning huquqiy holati, farzandlikka oluvchilarning o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik shakllari, farzandlikka olishni bekor bo'lish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlari, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlari kompleks tarzda monografik tadqiq etildi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalarini o'rganish, bu borada amaliyot xodimlari munosabatlarini o'rganish, huquqshunos olimlarning bu sohadagi fikrlarini tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarib, amaldagi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish va ularni ilmiy-nazariy asoslab berishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari:

- farzandlikka olish bilan bog'liq tushunchalarga ilmiy-nazariy ta'rif berish va bunday tushunchalar o'rtasidagi farqni aniqlab olish;

- farzandlikka olish huquqiy asoslarini tarixiy rivojlanish bosqichlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

- oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar tushunchasi, rivojlanish tarixini o'rganish;

- oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik tushunchasi, umumiy tavsifini berish;
- sud-huquq islohotlari sharoitida bu turdagi jinoyat uchun javobgarlikni liberallashtirish borasidagi qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash;
- kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlikni aniqlash;
- g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlikni o'rganish;
- farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqqanligi uchun javobgarlikni o'rganish;
- farzandlikka olish sirini oshkor qilishning oldini olish choralari tahlil qilish;
- oilaviy-huquqiy munosabatlarda farzandlikka olish huquqiy institutini takomillashtirish va ijobiy samaraga erishishni ta'minlovchi ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar tushunchasi, rivojlanish tarixi, farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik tushunchasi, umumiy tavsifi, kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik aniqlangan, g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun, farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqqanligi uchun javobgarlik masalalari, farzandlikka olish sirini oshkor qilishning oldini olish choralari tahlil qilish masalalari O'zbekiston Respublikasining oila, jinoyat qonunchiligi asosida ilmiy-nazariy va amaliy tahlil etilib, "Oila huquqi", «Jinoyat huquqi» fani nazariyasini boyitishga xizmat qiladigan qator ilmiy takliflar, kontseptsiyalar himoya uchun ilgari surildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti bo'lib farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik bilan bog'liq huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot metodlarini bilishning ilmiy usullari – kontseptuallik, muammoviy-maqсадli, qiyosiy huquqiy, tarixiylik, mantiqiylik, statistik, amaldagi qonun hujjatlari va ularni qo'llashni ilmiy tahlil etish tashkil etadi.

Natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, unda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosa va qoidalardan, mamlakatimizda farzandlikka olish huquqiy institutini rivojlantirishda, bu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda, farzandlikka olinuvchilar huquqiy maqomini takomillashtirishda, farzandlikka olish bilan bog'liq qonunchilikni qo'llash amaliyotini yaxshilashda foydalanish mumkin. SHuningdek, fuqarolik huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi sohalari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va dasturiy ko'rsatmalarning tegishli mavzularini tayyorlashda ham bu taklif va xulosalar ijobiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va empirik asoslari esa, fuqarolik va oila huquqi, jinoyat huquqi bo'yicha tegishli tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, sakkiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishda oilaga, yoshlarga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalarning rivojlanish tarixi, ushbu turdagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi, ularning kriminologik jihatlari va oldini olish choralari o'rganilgan.

Xulosa qismida ish yuzasidan tegishli xulosa va fikr, takliflar bayon etilgan.

I-BOB. OILAGA QARSHI JINOYATLAR TIZIMIDA FARZANDLIKKA OLISH SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA UMUMIY TAVSIFI

1.1. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar tushunchasi, rivojlanish tarixi

O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng respublikamizda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy-madaniy sohalarda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar, sud-huquq va boshqa sohalardagi ulkan ishlarning pirovard maqsadi inson haq-huquqlari va manfaatlarini yanada ko'proq kafolatlash, ularning bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

2008 yilning «Yoshlar yili» deb nomlanganligi bejiz emas. Chunki hozirda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lganlar 10 million 360 ming nafarni yoki aholining qariyb 40 foizini tashkil etadi.¹

Respublikamizda oilaga qarshi jinoyatlarni oldini olishning profilaktika huquqiy asoslari yaratilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat va boshqa qonunlarida bolalalarning huquq va erkinliklari, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi normalar mavjud. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining alohida bobida, ya'ni 14 bobida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir qoidalari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi tomonidan «Ona va bola» davlat dasturi to'g'risida, «Sog'lom avlod» dasturi to'g'risida, «Xotin-qizlar va yosh avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»

¹ **Karimov I.A.** Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. T.13. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 36.

qarorlarining qabul qilinganligi yurtimizda bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish, bizning milliy xususiyatlarimizdandir»¹. Uning huquqiy asoslari Konstitutsiyaning 64-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya, faoliyatlarni rag'batlantiradi». Konstitutsiyaning 65-moddasida esa, «farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi, deb mustahkamlab qo'yilgan.

Yuqoridagilar bilan birga, 2008 yil 7 yanvarda mamlakatimizda «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning² qabul qilinishi, yurtimizda bolalarga har tomonlama g'amxo'rlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni kamol toptirishga yo'naltirilgan yana bir muhim qonun hujjatlaridan biri bo'lib, u II bob, 31 moddadan iborat. Qonunning 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati yo'nalishlariga, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik, tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash, bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabilar mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va tarbiyalash masalalari «Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya»da, Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan «Yoshlarga doir davlat siyosati asoslari to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, 2011. 48-b.

² «Bola huquqlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.//Xalq so'zi, 2008 yil 8 yanvar, № 5.

dasturi», Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Yoshlar yili davlat dasturlari» da o'z aksini topganligi, fikrimizning dalilidir.

Ma'lumki, BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda «Bola huquqlari to'g'risida konvensiya» qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qildi.¹

Konvensiya 54 moddadan iborat bo'lib, bunda bola huquqlarining asosiy yo'nalishlari, ya'ni oilada tarbiyalanishi, bu borada ota-ona mas'uliyati, bolaning dunyoqarashi, fikrni erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi, bola himoyasi kabi muhim jihatlar mustahkamlangan.

Jumladan, Konvensiyaning 2-moddasida davlatlar har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni hech kamsitishlarsiz, uning etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'idan qat'iy nazar hurmat qilishlari va ta'minlashlari lozimligini qayd etilgan.

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya bolalar hayotiga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish huquqini beradi va ularning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish zarurligini ta'minlaydi.

Shartnoma ratifikatsiya qilingandan buyon o'tgan davrda davlatimizda bolalarni o'qitish va tarbiyalash borrasida olib borilayotgan siyosati ushbu muhim xalqaro huquqiy hujjatning barcha asosiy moddalariga to'la amal qilib kelinayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 153-moddasiga ko'ra, «Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi» deb mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka oluvchilarning roziligisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining roziligisiz berish taqiqlanadi.

¹Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'z.R. Milliy markazi, 2005, 3-b

Ma'lumki, sirni oshkor bo'lishi farzandlikka olingan bolaning xarakteriga, farzandlikka olinganlarga nisbatan bo'lgan munosabatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bolalar ruhiyati juda oson ta'sirlanadi, ayrim chuqur ta'surotli bolalar farzandlikka olganlar bilan aloqasini uzib ketishlari yoki bo'lmasa ular kamgap, begonasirab qolishlari, hattoki o'zlarini o'ldirishlari mumkin. Shu tufayli farzandlikka olishni sir tutilishi, qonun bilan himoya qilinishi katta hamiyatga egadir.¹

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasida oilaga qarshi jinoyatlar tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi jinoyatlardan biri, ya'ni «farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik» to'g'risidagi normaning aks ettirilganligi ham, davlatimizning oilaning va farzandning manfaatlari, uning ma'naviy rivojlanishini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash kerak.

Ma'lumki, bolalarni farzandlikka olgan shaxslarga davlat alohida ahamiyat beradi. Davlatning bunday g'amxo'rligining boisi shundaki, deb yozadi M.S.Narikbaev, - farzandlikka olish juda kuchli hayajon va ruhiy holat bilan bog'liq bo'lib, farzandlikka olgan shaxslar olingan bolaning haqiqiy otasi va haqiqiy onasi bo'lish maqsadida farzandlikka oladilar.»²

Otna-onaning (farzandlikka olgan shaxslarning) manfattalirni himoya qilish maqsadida bolaning normal ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zRning Oila kodeksida (153-modda) farzandlikka olishning sir saqlanishi to'g'risida bayon qilingan. Farzandlikka boluv oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining qo'riqlanadigan sirini oshkor qilish uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, Jkning 125-moddasida jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ta'kidlash kerak, oilaga qarshi jinoyatlar tizimida jinoyatchilikning ushbu turi MDHdavlatlarining deyarli barchachi jinoyat sifatida nazarda tutilgan. Bu borada Rossiya, Ukraina, Armeniya, Belarus Respublikasi, Tojikiston, Qozog'iston davlatlari qonunchiligi shular jumlasidandir.

¹ O'razaliev M.Q. Axloqqa zid qilmishlar. // Hayot va qonun. – Toshkent, 2005. №3. –B. 71-72.

² Narikbaev M.S. Pravovaya oxrana detstva. – Kazaxstan:Almati. 1996. – S.88.

Oilaga qarshi jinoyatlar ichida jinoyatning ushbu turi kamdan-kam sodir etilsa-da, bitta shunday qilmishning sodir etilishining o'zi achinarli holatdir. Chunki ushbu qilmishning sodir etilishi, farzandning ma'naviy va hattoki ruhiy rivojlanishiga ta'sir qiladi, ba'zi bir hollarda uning hayotini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi ham hech narsa emas. Shuning uchun bu boradagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari chuqur o'rganilishi, ushbu turdagi qilmishlarga qarshi kurash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Farzandlikka olish instituti O'zbekiston hududida amal qilgan huquq tizimlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topganligini qayd etish lozim. Jumladan, farzandlikka olish bo'yicha munosabatlar islom huquqi normalarida o'z davrida fiqh mutaxassislari tomonidan chuqur tahlil etilgan. Jumladan, Burxoniddin Al-Marg'inoniyning "Hidoya", "Muxtasar" asarlari va boshqa qator tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, A.X.Saidov, A.R.Raxmanov, S.A.Isxokov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Sobiq Ittifoq davrida va keyinchalik MDH mamlakatlarida farzandlikka olish bilan bog'liq masalalar O.P.Pavlova, L.Pchelintsova, A.Nechaeva, M.Antokol'skaya, M.M.Klyachko, N.V.Letova, V.V.Ryazantsev, M.N.Maleina, A.Z.Dzugaeva, O.Dyujeva, I.M. Kuznetsova, V.G.Ionchenkova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Milliy huquqshunos olimlar I.B.Zokirov, H.R.Rahmonqulov, O.Oqyulov, M.X.Baratov, R.J.Matkurbanovlar voyaga yetmaganlarning huquqiy holatini fuqarolik-huquqiy nuqtai nazardan umumiy asoslarda o'rganganlar.

Xalqimizning boy o'tmishi, madaniyati, urf-odati tarixi uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Kishilik jamiyatida dastlabki ijtimoiy munosabatlar urf-odat va an'analar, diniy tarbiya asosida tartibga solinganligi hech kimga sir emas. SHu ma'noda olganda dissertant farzandlikka olishning huquqiy asoslarini tadrijiy rivojlanishiga e'tibor qaratib, ularni quyidagi to'rt bosqichga bo'lib o'rganish lozim deb hisoblaydi.

1-bosqich – islomgacha bo'lgan davr (zardushtiylikdan 8-asrgacha). Ushbu davrda ijtimoiy munosabatlar asosan urf odat va an'analar asosida tartibga solishga alohida o'rin tutadi. Oilaviy munosabatlarda inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham o'ylashi zaruriy shart sanalgan[8]. Demak, bu davrda umumiy axloqiy, oilaviy masalalarga e'tibor alohida qaratilgan. Yosh avlodni tarbiyalash, jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qaralib, bu boradagi asosiy mas'uliyati ayollar zimmasiga yuklangan. Chunki, ushbu davrda ham ayollar ro'zg'or, uy yumush ishlarida muxim o'rin egallagan.

2-bosqich – islom davri (8-asrdan-20 asrgacha) esa, nikoh, oilaviy hayot islom dini qonun qoidalariga mos ravishda tartibga solingan. Bunda muxim manba bo'lib, Qur'oni karim, payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari va Vatandoshlarimiz Imom al Buxoriyning "Al jome' as saxix", Imom Moturudiyning "Hidoya" asarlari xizmat qilgan. Demak, bu davrda ham nikoh, oilaviy turmush masalalari, xususan farzandlikka olishda avvalo, etimlarga nisbatan alohida g'amxo'rlik qilishlik, ularning haqqini yemaslik, jamiyat tomonidan mexr muruvvat ko'rsatilishi muxim sanalgan. Shuningdek, islomda farzandlikka qabul qilishning asosiy sababi voqe'lik nuqtai nazaridan ya'ni, nasl-nasabi begona bolani oilaga qabul qilib, uning mahram bo'lmagan ayollar bilan mahramligining belgilanmasligi hamda ota-onaga qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani asrab olish, uni tarbiyalash va voyaga etkazish juda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uddasidan chiqa olmaslik holatlari oqibati og'ir bo'lishligi belgilangan.

3-bosqich – sovetlar davri (1917-1991yy.). Bu davrda oila huquqiga doir ilmiy tadqiqotlardagi aqidaviylik (dogmatizm) adolatli sotsial jamiyat qurish ko'rinishi sifatida - hukmron sinf mafkurasini amalga oshirish amaldagi holatlarni bo'yab ko'rsatishga, jiddiy muammolarga ko'z yumishga olib kelar edi. Farzandlikka olishga doir nashr etilgan ishlarda odatda, farzandlikka olish akti sifatida qaralgan. Bu holat ilmiy tadqiqotlar darajasida, jumladan farzandlikka olish keng ahamiyatli tushuncha sifatida qaralmasligiga olib kelgan.

4-bosqich – mustaqillik davri (1991 yildan). Bu davra mustaqil O'zbekiston sharoitida, bugungi bozor munosabatlari sharoitida otalik, onalik va bolalikka alohida e'tibor bilan qaralayotganligi, ularning huquq va manfaatlari doimiy diqqat e'tibor bo'layotganligi, bu borada milliy huquq tizimida qonunchilik bazasining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Farzandlikka olishdan asosiy maqsad – u yoki bu sababga o'z ota-onasi bag'rida o'sish imkoniyatiga ega bo'lmagan voyaga yetmagan bolalarni oila va ota-ona mehri, muhabbati bilan ta'minlash, u bolalarni o'ksimasdan, o'zi tushib qolgan vaziyatdan hech qanday aziyat chekmasdan to'laqonli kamol topish hisoblanadi. Boshqa tomondan olganda farzandlikka oluvchilar ham yuksak insoniy burchni bajarish tuyg'usidan tashqari ota-onalik shuuriga, baxtiga muyassar bo'ladilar.

Binobarin, farzandlikka olish farzandlikka olinganlar, farzandlikka olganlar uchun o'ziga xos ne'mat, yuksak insoniy tuyg'ularni qanoatlantirish hisoblanadi. Ayni vaqtda, bu jamiyat uchun ham g'oyat foydalidir. Bolani normal o'sib, kamol topishi uchun eng asosiy shart-sharoit-ota-ona mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi, oila muhiti ta'minlanadi. Eng asosiysi, farzandlikka olingan bolalar bilan farzandlikka oluvchilar o'rtasida haqiqiy ota-ona va farzandlar kabi doimiy, barqaror o'zaro ishonch, mehr-muhabbat, mas'uliyati, g'amxo'rlik, qon-qarindoshlikka asoslangan shaxsiy munosabatlar vujudga keladi. Biroq bunday munosabatlar darz kyetishiga, bolani ruhiy ahvoli, qalbi ozor chekishiga, farzandlikka oluvchilarni o'ta noqulay ahvolga tushib qolishlariga va boshqa qator og'ir holatlar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi bir xavf bor-bu farzandlikka olish sirini oshkor bo'lishi hisoblanadi. Xuddi shu sababli farzandlikka olish siri qonun tomonidan har tomonlama muhofaza ostiga olingan.

Farzandlikka olishda bo'lajak ota-ona uchun oilaviy-huquqiy munosabat avvaldan mavjud bo'ladi. Ya'ni, ularning o'zaro nikohda bo'lishi oilaviy munosabat vujudga kelganligidan dalolat beradi. Farzandlikka olish natijasida bola

uchun yangidan oilaviy-huquqiy munosabat vujudga keladi, xuddi oilada yangidan farzand dunyoga kelgani kabi. Farzandlikka oluvchi ota-onaga qonun tomonidan bir qator huquq va majburiyatlar beriladi. Bolaga esa, uning uchun asosiy, baxtli bo'lib voyaga yetishadigan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiyada nazarda tutilgan huquq - oilada yashash va tarbiyalanish huquqi ta'minlanadi.

F.M.Otaxo'jaevning ko'rsatishicha, farzandlikka olish – bu o'zganing farzandini o'z farzandiga tenglashtirib olishdir, bu bolalarga, ayniqsa e'tiborga zor bolalarga mehr-muruvvat ko'rsatishning yorqin timsolidir. Bunda farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida tuqqan ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Farzandlikka oluvchi va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi munosabat qarindoshlikka tenglashtiriladi xolos. Chunki Oila kodeksining 165-moddasi talabiga ko'ra, farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Qonunchilik nuqtai nazaridan ota-onalar va farzandlikka oluvchilarning huquqiy munosabatlari mazmuni o'xshash bo'ladi.

Oila kodeksining 207-moddasiga ko'ra, nikohda bo'lgan va sun'iy homila hosil qilish yoki embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarni qo'llashi natijasida bola tug'ilsa, tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga ular shu bolaning ota-onasi deb yoziladi. O'zaro nikohda bo'lgan va boshqa ayolga homilani rivojlantirish maqsadida embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslar bolani tuqqan ayolning (qondosh onaning) roziligi bilangina bolaning ota-onasi deb yozilishi mumkin. Ya'ni, qonunga muvofiq, bolani tuqqan ayolning (qondosh onaning) huquqi ustunligi tan olinadi. Binobarin, homiladorlik davrida ushbu ayol va tug'ilgan bola o'rtasida alohida o'ziga xos aloqa yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Qolaversa, surrogat onada bolani qoldirish huquqidan mahrum etish uning uchun og'ir ruhiy qiyinchilik va ziyon etkazishi mumkin. Surrogat ona, bolaning ota-onasi sifatida bolaning genetik ota-onasini yozishga rozilik berishi

bilan kelgusida ushbu yozuv bo'yicha nizolashish huquqidan mahrum bo'ladi. Bu erda qadimda mavjud bo'lgan mater est quam gestation demonstrate (ya'ni, bolani dunyoga keltirgan shaxs ona) qoidasidan chetga chiqishni ham ko'rish mumkin.

Surrogat onadan tug'ilgan bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi dalolatnomaga faqatgina sudning qaroriga asosan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin, shuningdek embrionni implantatsiya qilishga rozilik bergan er-xotin ota-ona sifatida qayd etilishi mumkin. Surrogat onalikni rasmiylashtirishga doir qonunchilikka muayan o'zgartirishlar kiritib, surrogat onalik asosida farzandlikka olish to'g'risidagi sud ishlarini ko'rishda, embrionni implantatsiya qilinganlik faktini tasdiqlovchi tibbiy xujjatdan tashqari, farzand ko'ra olmaydigan er-xotinni ota-ona sifatida qayd ettirishga surrogat onaning notarial tartibda tasdiqlangan roziligi talab etilishi belgilanishi lozim.

Oila kodeksining 152-moddasi "sog'lig'ining yomonligi tufayli ota-onalik huquqini amalga oshira olmaydigan shaxslar", degan jumla bilan to'ldirilishi lozim. Shuningdek, bolani turli xil kasalliklarni yuqtirishi hamda ruhiy kasalliklarga chalinishi xavf-xatarini oldini olish maqsadida, shifokorlar ishtirokida bola uchun xavfli bo'lgan yoki bolaga g'amxo'rlik qila olmaydigan va tarbiyalay olmaydigan darajada kasallanganlar ro'yxati ishlab chiqilishi lozim. Biroq, ushbu ro'yxatda ko'rsatilgan kasallikka chalinganlar tomonidan farzandlikka olishda qat'iyat bildirilsa va bolaning manfaatlariga mos tushsa, ular o'rtasida qarindoshlik munosabatlari o'rnatilgan bo'lib, undan voz kechish bolaga yomon ta'sir etishi mumkin bo'lsa, sud tomonidan istisno holatlarda farzandlikka olishga yo'l qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Oila kodeksining 152-moddasiga farzandlikka olishi mumkin bo'lmagan shaxslar jumlasiga "qonun bo'yicha o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun vasiylik (homiylilik)dan chetlatilgan shaxslar; farzandlikka olish vaqtida bolani boqish uchun yetarli bo'lgan muayyan daromadga ega bo'lmagan, ya'ni eng kam oylik ish haqidan kam daromadga ega

bo'lgan shaxslar; doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar; uy-joyi sanitariya-gigiena va texnik talablarga javob bermaydigan shaxslar; nogiron bolalar farzandlikka olinayotganda zarur jihozlarga, kirish-chiqish yo'laklariga va bola uchun zarur bo'lgan boshqa moslamalarga ega bo'lmagan shaxslar»ni kiritish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish ma'muriy tartibda amalga oshiriladi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida farzandlikka olish sud tartibida amalga oshirilmoqda. Sud tartibida farzandlikka olish optimal tartib hisoblanib, bolani, uning ota-onasini, farzandlikka oluvchi va boshqa shaxslarning huquqlariga rioya etilishini protsessual kafolatlanishini ta'minlagan bo'lar edi. Binobarin, sud tartibida farzandlikka olishda farzandlikka olish shartlari va farzandlikka olishga monelik qiladigan holatlar to'g'ri, professional jihatdan batafsil o'rganib chiqilish imkoniyati bo'ladi. Shu sababli Fuqarolik protsessual kodeksiga farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni ko'rish bilan bog'liq bob kiritib alohida tartibda ko'riladigan ishlar qatoriga kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu bobda farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni tayyorlash, ko'rish va hal etish tartibi belgilanishi lozim.

Oila kodeksining 161-1-modda tariqasida “bolaning farzandlikka olinishida ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni vasiylar (homiylar), tutingan ota-onalar, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanayotgan muassasa rahbarlarining roziligi olinishi, agarda bolaning tug'ishgan ota-onasi roziligi talab etilmaydigan bo'lsa shart”, degan norma kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu moddaga 2-qism sifatida quyidagi normani: “bolaning farzandlikka olinishida ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni vasiylar (homiylar), tutingan ota-onalar, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanayotgan muassasa rahbarlarining rozilik berishmasa, ushbu holat yuzasidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud bolaning manfaatlarini ko'zlab

ushbu shaxslarning rozilgisiz ham farzandlikka olish haqida qaror qabul qilishi mumkin”, degan norma kiritilishi lozim.

Oila kodeksining 157-moddasida er (xotin)ning bolani farzandlikka olishga roziligi talabi ko’rsatilgan. OK 152-moddasida qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga laeqatsiz yoki muomala laeqati cheklangan deb topilganlar farzandlikka oluvchilar bo’la olmasligi ko’rsatib o’tilgan. Lekin, er yoki xotindan birining muomalaga layoqatsiz bo’lishi holati nazardan chetda qolgan. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda ushbu moddaga ko’shimcha tariqasida “Er yoki xotindan biri qonun yo’li bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo’lsa yoki muomala layoqati cheklangan bo’lsa, farzandlikka olishga yo’l qo’yilmaydi”, degan norma kiritilishi kerak.

Bolaning tug’ilish sanasini o’zgartirish borasida bola tug’ilganidan so’ng bir yil oralig’ida ushbu sanani o’zgartirish maqsadga muvofiq emas, chunki uch yoki to’rt oylik go’dakning fiziologik va ruhiy rivojlanish ko’rsatkichlari endi tug’ilgan go’daknikidan jiddiy farq qiladi va tibbiy nuqtai nazardan ham har bir oyda o’zgarib borib jiddiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bolaning tug’ilish sanasiga o’zgartirish kiritish bir yoshdan oshgandan so’ng tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo’lur edi.

Bolaning farzandlikka olinishi huquqi u tug’ilganda vujudga keladi va uning voyaga etgunicha davom etadi. Ayrim holatlarda bolaning sog’lig’i nuqtai nazaridan farzandlikka olish mumkin bo’lmaydi. Biroq, farzandlikka oluvchi ushbu ogohlantirishlarga qaramasdan farzandlikka olishga qat’iyat bildirsa, bola manfaatlarini yuzasidan bunga rozilik bermaslik maqsadga muvofiq emas albatta. Qoidaga asosan, odatda farzandlikka sog’lom bolalar beriladi. Chunki kasalmand bolani tarbiyalash farzandlikka oluvchidan alohida matonat, sabr-toqat va bardoshni talab etadi. Farzandlikka olish vujudga kelganidan so’ng esa, bolaning sog’lig’i yomonligi sababli undan voz kechish mumkin emas.

Ota-onalik huquqidan mahrum etishdan farqli ravishda farzandlikka oluvchining aybi bo'lmagan holatlarda ham farzandlikka olishni bekor qilish mumkin. Bu erda birinchi navbatda psixologik faktorlar muhim rol o'ynaydi. Demak, psixologik ekspertiza o'tkazish maqsadga muvofiq va zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Oila kodeksining 169-moddasiga qo'shimcha tarzida "Farzandlikka olish farzandlikka olingan bola va farzandlikka oluvchi o'rtasida uning aybidan qat'iy nazar ota-ona va bolalar o'rtasida munosabatning bo'lmasligi va farzandlikka olishni saqlash qolish maqsadga muvofiq bo'lmaganda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin», degan norma kiritilishi lozim. Ushbu normaning kiritilishi farzandlikka olishni bekor qilish asoslarini mantiqiy takomilga yetkazgan bo'lur edi.

Umumiy qoidaga muvofiq, farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi talab har ikkala farzandlikka oluvchi ota-onaga (yoki ulardan biriga) nisbatan qo'yiladi va ular o'z navbatida javobgar tariqasida ishga jalb qilinadi. Nazarimizda, farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi da'vo arizasi kim tomonidan taqdim etilishidan qat'iy nazar ishga vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi lozim va ushbu qoida Oila kodeksining 171-moddasiga 2-qism sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari sud o'z tashabbusi bilan boshqa shaxslarning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin emas degan xulosaga kelsa, ushbu shaxslarni jalb qiladi.

birinchidan, Oila kodeksining 165-moddasiga muvofiq, farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Farzandlikka oluvchi timsolida bola o'z ota-onasiga ega bo'ladi va yangi to'laqonli oila a'zosiga aylanadi va bola oilada o'zini muhofazalangan va baxtiyor sezadi. Farzandlikka olish natijasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllardan farqli ravishda, farzandlikka oluvchi bolaga nafaqat oilaga ega bo'lishlikni balki, insonlargagina xos bo'lgan ota-ona mehr-muhabbatini tuyish imkoniyatini bera oladi.

-ikkinchidan, bolani farzandlikka olishdan (masalan, oilaga tarbiyaga olish singari) mulkiy manfaatlar ko'zlanmaydi va davlat tomonidan bolani boqish va tarbiyalash uchun maxsus ta'minot berilmaydi;

-uchinchidan, ota-onasining qaramog'ini yo'qotgan bolalar farzandlikka olinishi natijasida bolani tarbiyalash, boqish, ta'lim berish hamda uning huquq va manfaatlari himoya qilish borasida farzandlikka oluvchilar mukammal darajada huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Vasiylar (homiylar) va tutingan ota-onalar esa kamroq huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar hamda ular vasiylik va homiylik organi kuzatuv ostida bo'ladilar. Farzandlikka olinish natijasida bolalar moddiy jihatdan ham ko'proq muhofazalangan bo'ladilar, chunki farzandlikka oluvchilardan ta'minot olish huquqiga ega bo'ladi va shu bilan birga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqini ham yo'qotmaydi;

-to'rtinchidan, farzandlikka olish muddatsizdir va faqatgina sud tartibida bekor qilinishi mumkin. Farzandlikka olishning muddat bilan chegaralanmaganligi oilaga barqarorlik, oila muhitiga moslashish hamda bolaning manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

-beshinchidan, har bir insonning tabiiy ravishda go'dak sifatida oilada dunyoga kelishini, oila muhitida tarbiyalanishi hamda voyaga yetishini e'tiborga olsak, farzandlikka olishning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi farzandlikka olishning qonuniy ta'rifini bermagan. Nazarimizda, oila qonunchiligi normalarini tahlil qilish natijasida farzandlikka olishga quyidagicha ilmiy-doktrinal ta'rif berish mumkin: Farzandlikka olish – bu bolaning biologik ota-onasining huquq va majburiyatlarini farzandlikka oluvchiga qonunda belgilangan tartib va asoslarda o'tishi bo'lib, bunda bola huquqiy munosabatda farzandlikka oluvchining biologik bolalariga to'liq tenglashtiriladi. Shu bilan birga bolaning tug'ishgan (biologik) ota-onasining barcha huquq va majburiyatlari bekor bo'ladi. Bunda farzandlikka olish natijasida bir tomondan farzandlikka oluvchi va uning qarindoshlari va ikkinchi tomondan

farzandlikka olinuvchi o'rtasida ota-ona va farzandlar shuningdek, uning qarindoshlari o'rtasida odatdagidek (ya'ni, tug'ishganlardek) huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Farzandlikka olish yuridik tarkibini muayyan mezon bo'yicha tasniflash mumkin, ular yuridik tarkib sifatida o'z ichiga bir qator holatlarni qamrab oladi va ular orasidan asosiy va qo'shimcha faktlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Birlamchi mezon farzandlikka olish uchun doimo shart bo'lib hisoblanadi va bularga bolani farzandlikka oluvchining o'z xohish-irodasini bildirishi, vasiylik va homiylik organining farzandlikka olish haqidagi xulosasi va farzandlikka olish haqidagi hokimning qarorini kiritish mumkin. Ikkilamchi mezon (qo'shimcha faktlar) esa, qonunda nazarda tutilgan holatlarda yuridik tarkibga kirishi ham kirmasligi ham mumkin. Bular sirasiga farzandlikka olishga ota-onaning roziligi, vasiylar (homiylar) ning roziligi, tutingan ota-onaning roziligi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanayotgan muassasa rahbarlarining roziligi, o'n yoshga to'lgan bolaning roziligi, farzandlikka oluvchining eri (xotini)ning roziligini kiritish mumkin.

Farzandlikka olish asosida yotuvchi yuridik faktlarni tasniflashda ikkilamchi mezon (qo'shimcha faktlar)ning kam ahamiyatli yoki har doim ikkinchi darajali ahamiyatga ega deb xulosa chiqarmaslik lozim. Chunki, qonunda nazarda tutilgan hollarda ushbu holatlarning mavjud bo'lishi asosiy (birlamchi) faktlar singari huquqiy munosabatning vujudga kelishida muhim o'rin tutadi.

Farzandlikka olish shartlari tahlili shuni ko'rsatadiki, farzandlikka olish bir tomonlama (bitim) erk-irodaning ifodalanishiga doir huquqdorlik sifatida qaralishi mumkin. Bunday xulosaga kelish, huquq sohalari tizimida oila huquqining fuqarolik huquqining kichik sohasi sifatidagi o'rnini asoslashga qo'shimcha faraz sifatida foydalanishga imkon beradi. Farzandlikka olishning har bir sharti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, farzandlikka oluvchining farzandlikka olishga doir erk-

irodasining ifoda etilish vaqtidan yuridik fakt tarkib topa boshlaydi va farzandlikka olish bilan bog'liq murakkab huquqiy munosabat rivojlanib boradi.

Farzandlikka olishni voyaga yetmaganlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish shakllaridan biri sifatida qarash, yuridik hujjat – buni vujudga keltiruvchi asos bu harakat (ya'ni, farzandlikka oluvchining erk-irodasi va hokimning qarori), shuningdek farzandlikka olish sub'ektlari (farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi)ning muayyan muddat davomida huquqiy munosabatda bo'lishi hisoblanadi. Bundan tashqari ota-onaning farzandlikka olishga roziligi nafaqat yuridik harakatlarni amalga oshirish (ota-onaning roziligining arizada ko'rsatilishi), shu jumladan konklyudent harakatlar (zarur hujjatlarni yig'ish, vasiylik va homiylik organidan ma'lumot olish)da ham ko'rinadi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakli deganda, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga yoki bolalar muassasasiga joylashtirish, farzandlikka berish, ularni tarbiyalash, ta'lim berish, boqish, huquq va manfaatlarini himoya qilish shartlarining qonuniy belgilangan tartibini tushunish mumkin.

Ayrim olimlar tomonidan yuridik javobgarlikning an'anaviy konstruktsiyasining zaruriy komponentlari - huquqqa xiloflik va ayb ba'zi holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilashda mavjud bo'lmasligiga yo'l qo'yilishi ko'rsatilib, yuridik javobgarlik haqidagi doktrinalar qayta ko'rib chiqilishi lozim degan g'oya ilgari suriladi (O.Oqyulov). Muallif bu borada o'z nuqtai nazarini ilgari suradi. Uning fikricha, oilaviy-huquqiy javobgarlikning o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda farzandlikka oluvchining o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligida farzandlikka oluvchining aybdorligi prezumptsiyasi amalda bo'lishi lozim. Chunki oiladagi ma'naviy muhit, bolaning tarbiyasi, xulq-atvori va boshqa insoniy fazilatlarining shakllanishida farzandlikka oluvchi mas'uliyatli hisoblanadi.

Farzandlikka olish siri ham shaxsiy, ham kasb-kor siri bo'lib, - bu farzandlikka oluvchi shaxs, farzandlikka olingan bola haqidagi, uning vaqti, joyi va

farzandlikka olishga ahamiyati bo'lgan boshqa holatlar haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

1.2. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik tushunchasi, umumiy tavsifi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasida oilaga qarshi jinoyatlar tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi jinoyatlardan biri, ya'ni «farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik» to'g'risidagi normaning aks ettirilganligi ham, davlatimizning oilaning va farzandning manfaatlari, uning ma'naviy rivojlanishini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash kerak.

Ma'lumki, bolalarni farzandlikka olgan shaxslarga davlat alohida ahamiyat beradi. Davlatning bunday g'amxo'rligining boisi shundaki, deb yozadi M.S.Narikbaev, - farzandlikka olish juda kuchli hayajon va ruhiy holat bilan bog'liq bo'lib, farzandlikka olgan shaxslar olingan bolaning haqiqiy otasi va haqiqiy onasi bo'lish maqsadida farzandlikka oladilar».¹

Otna-onaning (farzandlikka olgan shaxslarning) manfaatlarini himoya qilish maqsadida bolaning normal ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'z Rning Oila kodeksida farzandlikka olishning sir saqlanishi to'g'risida bayon qilingan.

Shu o'rinda ta'kidlash kerak, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 20-bobi «Farzandlikka olish» masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda farzandlikka olish tartibi, farzandlikka olish mumkin bo'lgan shaxslar doirasi, sir saqlash, farzandlikka olishni bekor qilish asoslari va boshqa qoidalar mustahkamlangan bo'lib, ushbu bob 22-moddadan iborat². Haqiqatdan ham, bu borada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 125-moddasida

¹ Narikbaev M.S. Pravovaya oxrana detstva. –Kazaxstan:Almati. 1996. – S.88.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Kodekslari. 2006. – 715 b.

«Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik» uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Oila kodeksining 153-moddasiga ko'ra, «Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi» deb mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka oluvchilarning roziligisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining roziligisiz berish taqiqlanadi.

Farzandlikka oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining erkiga xilof ravishda farzandlikka olish sirini oshkor qilgan shaxslar qonun Bilan javobgarlikka tortiladilar.

Ta'kidlash kerak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga ushbu normaning kiritilishi o'ziga xos tarixga ega.

Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar, birinchi marta O'zbekiston Respublikasining 1959 yildagi Jinoyat kodeksida O'zbekiston Respublikasining 1970 yil 26 fevraldagi qonuni bilan mustahkamlangan.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida ushbu jinoyat kodeksning maxsus qismi beshinchi bobida, ya'ni «Oila, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar» tizimida mustahkamlangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida tarixida ushbu jinoyat uchun javobgarlik masalalari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1959 yildagi Jinoyat kodeksida «Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik» uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar oilaga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi alohida boblarning nazarda tutilmaganligi uchun, ushbu kodeksning To'qqizinchi bobida, ya'ni «idora qilish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar» tizimida mustahkamlab qo'yilgan edi. Xususan, ushbu bobning 201-1-moddasida «Farzandlikka olish

sirini oshkor qilish» uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, u quyidagi belgilarni nazarda tutgan edi:

«Farzandlikka bola oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi o'laroq, farzandlikka olishning qonun bilan himoya qilinadigan sir saqlanishini oshkor etish-

Ikki yilgacha muddatga axloq tuzatish ishi bilan yoxud ikki yuz so'mgacha jarima solish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar g'arazgo'ylik maqsadlarida qilinsa yoki og'ir oqibatlarga olib kelsa, -

O'n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi».

Yuqoridan ko'rinadiki, ushbu modda ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismi jinoyatning oddiy turi uchun, 2-qismi aybni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida faqat g'arazgo'ylik va og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi nazarda tutilgan.

Ushbu qonunga ko'ra, jinoyatning obyekti sifatida farzandlikka olingan bolaning normal o'sishi, bola tarbiya qiluvchilarning manfaatlari, idora etish organlarining normaol ish faoliyati nazarda tutilgan.¹

Qiziqarli tomonlaridan yana biri shundaki, O'zbekiston Respublikasining 1959 yildagi qonuniga ko'ra, ushbu jinoyat uchun javobgarlik ehtiyotsizlikdan sodir etilganda ham kelib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik masalalari oldingi qonunlardan tubdan farq qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 5 bob, 125- moddasida jvobgarlikni nazarda tutadi. YA'ni ushbu jinoyat amaldagi jinoyat qonunida «Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar» tizimida o'z aksini topgan. Haqiqatda ushbu qilmish, avvalo, oila manfaatlariga, shuningdek, bolaning normal axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. SHuning uchun ushbu jinoyatni oilaga qarshi jinoyatlar tizimida mustahkamlanganligi ham ilmiy ham amaliy jihatdan to'g'ridir.

¹ Ignatov A.I. Otvetstvennost za prestupleniya protiv sem'i i nraivstvennosti. – M. 1996. – s. 45

Amaldagi Jinoyat kodeksining 125-moddasida nazarda tutilgan ushbu jinoyat ikki qismdan iborat:

Farzandlikka bola oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, etim yoki ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun Bilan qo'riqlanadigan sirini oshkor qilish-

Eng kam oylik ish haqining elik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari Bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

A) kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

B) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;

V) og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa;

Eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ma'lumki, jinoyat tarkibi o'ziga xos jinoyat nusxasi bo'lib, o'zida jinoyatning barcha alomatlarini mujassamlashtirib, shu alomatlar shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda mavjud ekanligi jinoyat deb hisoblashga asos bo'ladi.

Jinoyat tarkibi to'rt tomoni elementlari¹ orqali ta'riflansa, har bir elementi esa muayyan alomatlar orqali ifodalanadi.

Obyektiv alomatlar deganda, jinoyat tarkibi obyekt² va jinoyatning obyektiv tomonlarini ta'riflovchi alomatlar nazarda tutiladi. Subyektiv alomatlar deganda, jinoyatning subyektiv tomoni va jinoyatning subyekt³ni ifodalovchi alomatlarga aytiladi.

¹ **Element** - bir butunni tashkil etgan murakkab narsaning yoki hodisaning tarkibiy qismi.// O'zbek tilining izohli lug'ati. -Moskva:Rus tili, 1981, - 444 b.

² **Obyekt** (lot.) – kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, predmet, shaxs ma'nosini anglatadi. //O'zbek tilining izohli lug'ati, -Moskva: Rus tili,1981.-517 b.

³ **Subyekt** (lot.) idrok va iroda egasi, borliqni bilishga va o'zgartirishga qodir shaxs ma'nosini anglatadi. // Ko'rsatilgan manba, 2 jild,- 29 b.

Jinoyat obyekti jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyat har qanday jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga, masalan shaxsning hayoti, sog'ligi, qadr-qimmatiga, davlat manfaatlari sohasiga, mulkchilik huquqini amalga oshirishga va boshqalarga ziyon etkazadi. Aynan shular ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat tarkibining ikkinchi elementi-obyektiv tomonidir. Jinoyat tarkibining obyektiv tomoni jinoyat sodir qilishning tashqi tomonini ifodalovchi elementdir. Ijtimoiy xavfli qilmishlar obyektiv tomonining zaruriy belgilari bo'lib hisoblanadi. Har qanday qilmish o'z navbatida harakat yoki harakatsizlik natijasida sodir etiladi. Amalga oshirilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan oqibatlar orasidagi sababiy bog'lanish yoki moddiy tarkibga xos bo'lgan jinoyatlarning jinoiy oqibati bilan birga zaruriy belgisi bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat tarkibining uchinchi elementi-subyektiv tomonidir. Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni jinoiy qilmishning ichki tomoni bo'lib, u shaxsning o'zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabatida ifodalanadi. Jinoyat tarkibining subyektiv tomonini zaruriy belgisi ayb bo'lib hisoblanadi. Aybning qasd va ehtiyotsizlik shakllari mavjud.

Jinoyat tarkibining to'rtinchi elementi - jinoyatni sodir etgan shaxsdir, ya'ni subyektdir. JKning 17-moddasiga ko'ra, jinoiy javobgarlikka faqat jismoniy, aqli raso, jinoiy ta'qib yoshiga etgan shaxslar tortiladilar. Jinoyat sodir etgan vaqtda aqli noraso bo'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas (JKning 18-moddasining 2-qismi). Shuningdek, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun ayrim jinoyatlar bo'yicha u maxsus sub'ekt maqomiga ega bo'lishi kerak. Masalan, harbiy jinoyatlarda harbiy xizmatchi, mansabdorlik jinoyatlarida mansabdor shaxs va hokazo.

Jinoyat tarkibi tushunchasi o'zida zaruriy va fakultativ² belgilarni mujassamlashtiradi. Zaruriy belgilar - bu barcha jinoyat tarkiblari uchun xos bo'lgan belgilardir. Jinoyat huquqi nazariyasida, xususan, qonun normalarini ishlab chiqishda jinoyat tarkibining barcha jinoyatlar uchun muhim bo'lgan belgilari

ishlab chiqiladi, ular barcha jinoyatlar uchun umumiydir. Zaruriy belgilar JKning maxsus qismi normalarining dispozitsiyasida nazarda tutiladi. Jinoyat tarkibining zaruriy elementlari quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkini, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlashdir, deb ko'rsatilgan. SHuni ta'kidlash zarurki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining o'ziga xos jihatlaridan biri, uning mafkuradan xoliligi, jinoiy-huquqiy muhofaza qilish ob'ektlarining qayta baholanganligidir.

Agar 1959 yildagi O'z SSR JKning e'tibor markazida avvalo, davlat-siyosiy manfaatlar, so'ngra esa jamiyat va shaxs manfaatlari turgan bo'lsa, amaldagi jinoyat qonuni oldin shaxs, so'ng esa jamiyat va davlat manfaatlarining himoyasini nazarda tutadi. Jinoyatlar jamiyat hayotining turli sohalarida ro'y berib, mazmuni va ahamiyati turli bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga zarar keltirishi mumkin.

Ushbu jinoyat-huquqiy normani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'rsatib o'tilgan moddada, jinoyat qonuni bilan jinoiy tajovuzlardan qo'riqlanadigan muhim ijtimoiy munosabatlar ko'rsatilgan. Aynan mana shu ijtimoiy munosabatlar jinoyat to'g'risidagi ta'limotni va jinoyat tarkibini o'rganishda jinoyatning obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, jinoyatning obyekti-bu jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan, jinoiy tajovuz tufayli real zarar yetishi mumkin bo'lgan yoki zarar yetishi xavfi ostida qoladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning obyekti jinoyat tarkibining muhim elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi, u qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida ham ta'kidlangan bo'lib, «jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti, sog'lig'i, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.) ayb

shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga kiritilganligi bilan belgilanadi».¹

Ma'lumki, har qanday jinoyat, shubhasiz, u yoki bu ob'ektga (masalan, insonning hayoti, mulki, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va boshq.) tajovuz qilish bilan sodir etiladi. Shuning uchun, jinoyat ob'yektini to'g'ri aniqlash jinoyatning huquqiy mohiyatini aniqlash, jinoyat ob'yektiga etkazilgan zararga qarab, aniq kvalifikatsiya qilish imkonini beradi.

Jinoyatning ob'yekti faqat Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar o'z navbatida insonlar o'rtasidagi, ularning hayotiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ma'lum bir aloqalar bo'lib hisoblanadi. Lekin har qanday ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni orqali himoya qilinmaydi. Ijtimoiy munosabatlarning ko'pchiligi huquqning boshqa tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Masalan, qarzdor bilan kreditor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar fuqarolik huquqi bilan tartibga solinsa, soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar soliq huquqi normalari bilan o'zaro tartibga solinadi. Bu borada qonun chiqaruvchi Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni aniqlab, ularni o'zaro chegaralaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, JKning 2-moddasida Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan muhim ijtimoiy munosabatlar ko'rsatib o'tilgan.

Ijtimoiy munosabatlar doirasi o'z navbatida o'zgaruvchan bo'lib, ular jamiyatda siyosat, iqtisodiyot va boshqa tarmoqlarda yangi ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishiga bog'liqdir. Ya'ni, ushbu hollarda jinoyat ob'yektini aniqlashda, yangi ijtimoiy munosabatlarning Jinoyat qonuni bilan muhofaza qilishga muhtojligi yuzasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O'z navbatida, jinoyat ob'yekti bilan jinoyat huquqini huquq tarmog'i sifatida tartibga soladigan predmetni farqlash kerak. Chunki u ham ijtimoiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Lekin, ular shaxsning muayyan jinoyat sodir etishi bilan davlat va shaxs o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. U jinoyat huquqiy munosabat bo'lib, jinoyat huquqining bevosita tartibga solish

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2006 yil 3 fevraldagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 01-sonli qarori.// Qarorlar to'plami, - 6 b.

predmeti bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilar bilan birga, jinoyatning obyektni huquqiy normalardan ham farqlash kerak. Agar shaxs ma'lum bir jinoyat- huquqiy normani buzganlikda ayblanayotgan bo'lsa, bu erda gap faqat uning qonunga zid qilmishni sodir etganligi to'g'risida bo'lishi mumkin. Ushbu holatda jinoyat-huquqiy normaning o'ziga zarar etkazilmaydi. Jinoyatning obyektiga esa, deyarli barcha hollarda zarar etkaziladi yoki zarar yetkazilish xavfi ostida qoladi¹.

Jinoyat obyektining huquqiy ahamiyati juda katta. Jinoyat obyektining ahamiyati, avvalo uning jinoyat tarkibining zarur elementlaridan biri ekanligida namoyon bo'ladi. Chunki jinoyatning obyekti jinoiy javobgarlikning asoslaridan biridir. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun uning qilmishi qanday ob'ektga nisbatan qaratilganligini aniqlash lozim bo'ladi.

Jinoyatning obyektni to'g'ri aniqlash muayyan jinoyatning huquqiy tabiatiga to'g'ri baho berishda ifodalanadi. Masalan, shaxs o'zga insonga tajovuz qilib, uni hayotdan mahrum qilishni xohlab harakat qilgan bo'lsa, ushbu jinoyat shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib hisoblanadi. Albatta, ushbu holatda shaxsning hayoti jinoyatning obyekti bo'lib, unga zarar yetkazilishi mumkin yoki zarar etkazish xavfi ostida qolishi mumkin. Lekin shaxs insonga tajovuz qilib, maqsadi uning mulkiga egalik qilish bo'lsa, albatta, ushbu holda uning qilmishini insonning hayotiga qarshi jinoyat deb baholash mumkin emas, chunki ushbu holatda shaxs insonning mulkiga egalik qilish maqsadida unga tajovuz qilgan bo'lib hisoblanadi. Shunga o'xshash jinoyatlarda jinoyatning obyekti mulk bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat obyektini to'g'ri aniqlash uni boshqa, bir-biriga o'xshash jinoyatlardan ham farqlash imkonini beradi. Masalan, shaxs jabrlanuvchiga shafqatsizlarcha tan jarohati etkazadi. Shaxsning qilmishini to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun tajovuz obyektni aniqlash lozim bo'lib, bu o'rinda shaxsning hayoti yoki uning sog'lig'i ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Ushbu masala hal qilingandan

¹ Rustamboev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 3tom. –Toshkent:Ilm Ziyo, 2010. 122-b.

so'nggina, jinoyatchining harakati shaxsning hayotiga suiqasd yoki qasddan badanga og'ir shikast etkazish sifatida baholanishi mumkin. Amaliyotda yuqoridagiga o'xshash holatlarda jinoyat obyektni aniqlashda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorida ta'kidlab o'tilganidek, aybdorning qasdi nimaga qaratilganligini aniqlashlari lozimligi to'g'risidagi qoidaga amal qilinadi¹. Aybdorning qasdi to'g'risidagi masalani hal qilishda sudlar sodir etilgan jinoyat holatlarining barcha tomonlari yig'indisini inobatga olishlari, jumladan, jinoyat usuli va qurolini, jarohatlarning soni, xarakterini, joylashishini va boshqa etkazilgan shikastlarni, jinoiy harakatlarni to'xtatish sabablarini va h.k., shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining voqeagacha bo'lgan fe'l-atvorini, ularning o'zaro munosabatini, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlarini e'tiborga olishi lozim» deyiladi.

Darhaqiqat, har bir qilmish to'la, har tomonlama tahlil qilingandan so'nggina, uning qanday ijtimoiy munosabatlarga qaratilganligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin. Zero, shaxsning qilmishini obyektiga ko'ra noto'g'ri kvalifikatsiya qilish, shaxsning sodir etmagan qilmishi uchun asossiz ravishda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Jinoyat obyektining ahamiyati yana shundaki, u jinoiy qilmishlarni boshqa huquqbuzarliklardan aniqlashda yordam beradi. Ushbu hollarda jinoyatning obyektni aniqlash uchun muayyan ijtimoiy munosabatning Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanish yoki qo'riqlanmasligiga e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra:

1. Jinoyatning obyekti – har qanday jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib hisoblanadi;
2. Jinoyat obyekti jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash vositasidir;
3. Jinoyatning obyekti qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini aniqlashga xizmat qiladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi» 2004 yil, 24 sentyabrdagi qarori. // Qarorlar to'plami.- Toshkent, 2004. –11 b.

4. Jinoyatning obyekti - jinoyatlarni bir-biridan farqlab ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish vositasidir.

Farzandlikka olish sirini oshkor qilish *jinoiatining obyekti* oila manfaatlari, bolaning normal axloqiy rivojlanishi hisoblanadi.

Jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinuvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz, sub'ektning muayyan faoliyati bo'lib, uning o'zi yoki boshqa tashqi kuchlar bilan birgalikda biron-bir ijtimoiy munosabatga xavf tug'diradi yoki unga haqiqiy ziyon etkazadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni deganda, shaxsning obyektiv voqelikda qilmishni amalga oshiradigan va tashqi dunyoda muayyan o'zgarishlar keltirib chiqaradigan ongli irodaviy xulq-atvori tushuniladi¹ yoki boshqacharoq qilib aytganda, jinoyatning obyektiv tomoni bu, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ektga qarshi qilingan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tashqi tomonini xarakterlovchi belgilarga aytiladi. Jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, qilmishda jinoyatning obyektiv tomoni mavjud bo'lmasa, jinoyat tarkibi ham mavjud bo'lmaydi va shaxsni JKning 16-moddasiga ko'ra, qilmishda jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaganligi sababli jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Jinoyat obyektiv tomonini tavsiflovchi belgilar qo'yidagilardir:

- a) shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizlik);
- b) ushbu ijtimoiy xavfli qilmishning ijtimoiy xavfli oqibati;²
- v) ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- g) jinoyatning sodir bo'lgan joyi, usuli, vaqti, sharoiti va boshqalardir.

Qonunda jinoyat tarkibi belgilarining aniq yozilishi va ularga tergov, sud amaliyotida amal qilinishi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun juda ahamiyatlidir.

¹ **Muqimova M.** Jinoyat tarkibi masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2007. -36 b.

² **Izoh:** ijtimoiy xavfli oqibat faqat moddiy tarkibli jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddolari dispozitsiyasida har bir jinoyatning obyektiv tomoni belgilari ko'rsatilgan. Ular bir-biridan asosan ijtimoiy xavfli qilmishning xarakteri, jinoyatning sodir qilinish usuli, jinoiy oqibati, jinoyatning qanday sharoitda qilinganligi va boshqa jihatlar bilan farq qiladi. Masalan, o'g'rilik, firibgarlik, bosqinchilik jinoyatlari bir-biridan asosan qilmishning xarakteri va mulkni qonunga zid holda egallash usuli bilan farq qiladi. Aynan shu belgilar jinoyatning obyektiv tomonidir. Demak, jinoyatlar bir-biridan aynan obyektiv tomoniga ko'ra farq qilar ekan. Chunki, o'g'rilik jinoyatida mulk yashirin usulda talon-taroj qilinsa, firibgarlikda aldov yo'li bilan, talonchilikda ochiqdan-ochiq talon-taroj qilinadi.

Jinoyat obyektiv tomonining belgilari Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida quyidagi uch shaklda ko'rsatilgan:

a) keltirilishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibatdan qat'iy nazar, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish (formal tarkibli jinoyatlar): radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 252-modda), boshliqni qo'rqitish (JK 282-modda) vijdon erkinligini buzish (JK 145-modda), jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish (JK 243-modda), giyovandlik vositalari yoki psixotorop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 271-modda) va boshqalar.

b) ijtimoiy xavfli oqibatlarning o'zi(moddiy tarkibli jinoyatlar): qasddan odam o'ldirish (JK 97-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida qasddan odam o'ldirish (JK 98-modda), suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-modda), hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-modda), mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-modda) va boshqa jinoyat tarkiblaridir;

v) jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilishning tugallangan jinoyatlar (kesik tarkibli jinoyatlar): masalan, bosqinchilik (JK 164-modda), talonchilik (JK 165-modda), jinoiy uyushma tashkil etish(JK 242-modda), urushni targ'ib qilish (JK 150-modda), agressiya (JK 151-modda) va boshqa jinoyat tarkiblari.

Demak, jinoyatning obyektiv tomoni quyidagi xususiyatlarga ega:

birinchidan, jinoyatlarni bir-biridan farqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi; ikkinchidan, jinoyatni ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda yordam beradi; uchinchidan, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jinoyat obyektiv tomondan farzandlikka oluvchining (mazkur shaxslar vafot etgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining) rozilgisiz farzanlikka olingan o'g'il yoki qiz bola haqidagi ma'lumotlarni oshkor etishi, fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari kitobidagi farzandlikka oluvchilar bolaning qon-qarindoshi emasligini anglash mumkin bo'lgan ko'chirmalarni berishida ifodalanadi¹.

O'g'il yoki qiz bolaning farzandlikka olingani haqidagi sirning oshkor etilishi, farzandlikka olingan bolalarning tug'ishgan ota-onasi emasligi to'g'risidagi axborotni (og'zaki, yozma ravishda, bosma usulda va h.k.) oshkor qilish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Bunda axborot farzandlikka oluvchilarning xohish-irodasiga qarshi yoxud ularning vafotidan so'ng vasiylik va homiylik organlarining ruxsatisiz oshkor etilgan bo'lishi mumkin.

Farzandlikka olish siri ana shu sirni rasmiy yo'l bilan olish imkoniga ega bo'lmagan har qanday shaxsga ma'lum qilinishi mumkin.

Basharti farzandlikka olish sirining oshkor etilishi farzandlikka olishni haqiqiy emas deb e'tirof etish yoki farzandlikka olishni bekor qilish talabi bilan bog'liq bo'lgan hollarda, ushbu talablar tegishli rasmiy organlarga (sud, vasiylik organi va h.k.) qonunda ko'zda tutilgan tartibda ma'lum qilingan bo'lsa, bunday harakat jinoyat hisoblanmaydi.

O'g'il yoki qiz bolaning farzandlikka olingani haqidagi sir oshkor etilgan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Jinoyatning subyektiv tomoni jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biri

¹ **Rustamboev M.H.** O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 3 tom. –Toshkent:Ilm Ziya, 2010. 110-b.

bo'lib hisoblanadi va aybdorning o'zi sodir etgan, jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati bo'lib, qilmishning ichki tomonini xarakterlovchi belgilar yig'indisidan iborat.

Jinoyatning subyektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir, shu bilan birgalikda jinoyatning motivi va maqsadi ham kiradi. Lekin bu belgilar ayrim jinoyatlarning zaruriy belgisi xolos.

Ko'pgina hollarda qonun chiqaruvchi u yoki bu moddaning dispozitsiyasida aybning shaklini ko'rsatmaydi, ammo jinoyat tarkibi belgilariga, uning subyektiv tomonini aks ettiruvchi belgilarni kiritadi, masalan bosqinchilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilishi nazarda tutilgan (JK 164- moda). Ushbu moddada, garchi aybning shakli ko'rsatilmasa-da, talon-taroj qilish maqsadining mustahkamlanishi, bosqinchilikni qasddan sodir etilishidan dalolat beradi. Xuddi shunday o'g'rilik (JK 169-modda), tovlamachilik (JK 165- moda), firibgarlik (JK168-modda), talonchilik (JK 166-modda) faqat qasddan sodir qilinishi mumkin. O'z R JKning 227-moddasida hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud qilish, ularga shikast etkazish yoki ularni yashirganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatning obyektiv tomoni belgilarini tahlil qilish, uning subyektiv tomonini aniqlashda yordam beradi. Chunki shaxsni ushbu jinoyatda aybli deb topish uchun, korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarning qat'iy hisobidagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, shuningdek, ularni nobud qilish, shikast etkazish yoki yashirish g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilishi talab etiladi. Ushbu jinoyatning motiv va maqsadi (ya'ni g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlar) uning faqat qasddan sodir etilishidan dalolat beradi.

Ba'zi bir jinoyatlar subyektiv tomoni jinoyat natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni ko'rsatilishi orqali aniqlanishi mumkin.

Jinoyatning subyektiv tomonining ahamiyati ko'p qirrali bo'lib,

- birinchidan jinoyatning subyektiv tomonini aniqlash sodir etilgan qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish asosidir;

- jinoyatlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi;

- uchinchi, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda ahamiyat kasb etadi:

-to'rtinchidan, jinoyatning subyektiv tomonini chuqur tahlil qilish, uni jinoyat deb hisoblanmaydigan qilmishlardan farqlashga xizmat qiladi.

Demak, farzandlikka olish sirini oshkor qilish subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

Jinoyat tarkibining asosiy va zaruriy elementlaridan yana biri bu jinoyatning subyeksi, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxs hisoblanadi. Jinoyat qonuni «jinoyatning subyeksi» terminidan foydalanmaydi. Ushbu termin o'rniga qonunda «jinoyat sodir etgan shaxs», «jinoyat sodir etishda aybdor» degan so'zlar ishlatiladi.

«Subyekt» atamasi lotin tilida «Subjebuc» o'zagidan olingan bo'lib, atrofdagi voqealiklar, hodisalarga ma'lum ta'sir etib, uni o'zgartirishga harakat qila oladigan tirik insonlarga xos umumiy xususiyatlarni ifodalovchi umumlashtirilgan ma'nodagi so'zni anglatadi.

Jinoyat huquqi fani nuqtai nazaridan talqin etilganda, jinoyatning subyeksi Jinoyat kodeksi bilan javobgarlik belgilangan, qasddan yoki ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxslar tushuniladi. Jinoyat qonuni bo'yicha faqat insonlargina (jismoniy shaxslar) jinoyatning subyeksi bo'la oladilar. O'z.R. JK ning 17-moddasida ta'kidlaganidek, «Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar» O'zR Jinoyat qonunchiligiga ko'ra hayvonlar, garchi ular tomonidan mulkiy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi zararlar etkazilgan taqdirda ham jinoyatning subyeksi bo'la olmaydilar. Xuddi shuningdek, yuridik shaxslar¹ ham jinoyatning subyeksi bo'la olmaydilar. O'z navbatida

¹ **Yuridik shaxslar** - o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'ladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. // O'z R FK 39 – modda.

ta'kidlash kerakki, ko'pgina xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra hayvonlar va yuridik shaxslar jinoyatning subyekti sifatida javobgarlikka tortilishlari mumkin.¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga ko'ra hayvonlar jinoyat sodir etish vositalari sifatida qaralishi mumkin.

Shaxsni jinoyat subyekti deb topish uchun uning huquqiy maqomi ahamiyat kasb etmaydi. Ular O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, chet el fuqarolari ham bo'lishlari mumkin (jumladan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham).

O'z navbatida ta'kidlash joizki, har qanday jismoniy shaxs ham jinoyatning subyekti bo'la olmaydi. Jinoyat qonuniga ko'ra, o'z harakatlarini boshqara oladigan, ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan anglab etgan shaxslargina jinoiy javobgarlikka tortiladilar. O'z harakatini idora qila olmaydigan va oqibatni angamaydigan shaxslarning ijtimoiy xavfli qilmishi tufayli qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar etkazilsa, ularning harakatida qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayb mavjud bo'lmaydi.

Jinoyat subyektining muhim belgilaridan biri uning Jinoyat qonuni bilan ta'qib qilinadigan yoshga etganligidir. Faqat Jinoyat qonunida ko'rsatilgan yoshga to'lgan shaxslargina jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Zero, inson ma'lum yoshga etganidan so'nggina, uni o'rab turgan atrofdagi voqealarni qabul qilib, harakatlariga to'g'ri baho berishi va o'z hohishini kerakli yo'nalishda olish qobiliyati shakllanishi mumkin.

Jinoyatning subyekti to'g'risida xulosa qilib aytish mumkinki, jinoyatning subyekti-qasddan yoki ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgan, jinoiy javobgarlik yoshiga etgan, aqli raso, alohida hollarda esa Jinoyat kodeksi Maxsus qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan maxsus belgilarga (kasb, vazifasi, jinsi, yoshi va boshq.) ega bo'lgan jismoniy shaxslardir.

Mazkur jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso, har qanday shaxs, shu jumladan bolani farzandlikka olgan er-xotindan birontasi ham bo'lishi mumkin. Farzandlikka olish sirini oshkor qilishning JK 125-moddasining 2-

¹ Masalan, AQSH, Kanada, Fransiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Xitoy, Angliya, Irlandiya, Daniya, Finlyandiya, Lyuksemburg va boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligi bo'yicha yuridik shaxslar jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin.

qismi «a» bandiga ko'ra sub'ektlari faqat muayyan kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra sir saqlashi shart bo'lgan shaxslar kiradi. Bunday shaxslar qatoriga shifokorlar, akusherka va tibbiy hamshiralar, tug'ruqxona, shifoxonalar, bolalar bog'chasi, maktab o'qituvchilari, ya'ni bolalar o'qiydigan, davolanishi mumkin bo'lgan joylardagi xodimlar kiradi. Shuning bilan biraglikda ushbu jinoyatning subyekti xizmat mavqeiga ko'ra sir saqlashi shart bo'lgan shaxslar, masalan, FHDYO xodimlari, vasiylik yoki homiylik organlari xodimlari, shuningdek farzandlikka olish borasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etgan har qanday shaxslar bo'lishi mumkin.¹

1.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlikni liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi «Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-Protsessual kodeksi hamda MJTKlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni²» ga ko'ra, Jinoyat kodeksi 125-moddasining 2-qismidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi chiqarildi. Ushbu holat avvalo, mamlakatimizda olib borilgan jinoyatga oid siyosatni liberalashtirish borasidagi islohotlar bilan bog'liq.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik va suverenitetga erishishi davlat va jamiyat oldida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha dolzarb va yuksak vazifa, maqsadlarni yuzaga keltirdikim, bu borada Jinoyat qonunini liberallashtirish uning muhim institutlari, jumladan jinoiy javobgarlik, jazo tizimi va jazo tayinlash qoidalari, shuningdek boshqa institutlarini isloh qilishni taqozo etdi. Bu esa o'z navbatida jinoyatga oid siyosatda an'ana bo'lib qolgan ko'pgina fikrlarni o'zgartirishga sabab bo'ldi.

¹ **Kadirov M.M.** Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast. – Tashkent, 1997. – S.87.

² O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi «**Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-Protsessual kodeksi hamda MJTKlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni**» // O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001 yil. 9-10 son, 165-modda.

Shu o'rinda «liberallashtirish» atamasining ma'nosiga alohida to'xtalib o'tsak. Liberallashtirish so'zi lotincha liberalis – hur fikrli, erkin so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ammo to'g'ridan-to'g'ri tarjima bu so'zning ma'nosini to'la aks ettirmaydi. Aniqrog'i, u shunchaki erkinlikni emas, balki insonning erkin fikrlash, inson faoliyatining turli sohalari haqida hukm chiqarish, shu jumladan, har qanday siyosiy tuzumga baho berish, uni tanqid qilish, hatto (konstruktiv) oppozitsiyada turish qobiliyatini ifodalaydi. Ba'zan mazkur atama huquq maydoni doirasida ularning turli vakillari, shuningdek, liberal oqim, liberal mafkura vakilining har xil qarashlari va g'oyalariga bag'rikenglik, xayrxohlik bilan munosabatda bo'lish ma'nosida ham qo'llaniladi.

Liberal qarashlar tizimi insoniyatning eng ilg'or, muhimi – ezgulik, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan aqlli nazariyalardan biridir.¹

Liberallashtirish iborasini ba'zi hollarda erkinlashtirish, engillashtirish, odillashtirish, mu'tadillashtirish iboralari bilan ham ifodalanadi. Lekin bu iboralar liberallashtirishni faqat muayyan qirralarini, mazmuninigina beradi xolos (masalan, ijtimoiy siyosiy hayotni erkinlashtirish, jinoyat qonunchiligi siyosatini mu'tadillashtirish, jazo choralarini engillashtirish va h.k.). Yaxlit mazmun kasb etuvchi ibora – liberallashtirish hisobalanadi, shu jihatdan ta'kidlash kerak, tilimiz shu ma'noda yangi so'z bilan boyidi va uni begona, yot so'z sifatida qabul qilish noo'rin.

2001 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining VI sessiyasida qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar

¹ **G'ulomova M.** Sud-huquq tizimini liberallashtirish masalalari. – Toshkent, 2006. 7-b.

² **Rustamboev M.H.** Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi – davr talabi va istiqbolda takomillashtirish muammolari. // Sud –huquq islohoti: nazariya va amaliyot mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent 2001. 165-b.

³ **Karimov I.A.** Adolat-qonun ustuvorligida. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – Toshkent:O'zbekiston, 2003. 26-52-b.

kiritish haqida» gi Qonuni esa liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi.

Mazkur qonun qabul qilingan dastlabki vaqtda ayrim huquqshunoslarda jinoiy javobgarlikning erkinlashtirilishi mamlakatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida jiddiy muammolar yuzaga keltirishi hamda jinoyatlarning keskin ortib kyetishiga olib kelishi mumkinligi haqida paydo bo'lgan xavotirlarning o'rinsizligi va asossizligini oxirgi yillardagi amaliyot yaqqol ko'rsatib turibdi.

Yuqoridagi qonun olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni liberallashtirishning natijasi bo'lib, uni amaldagi Jinoyat kodeksini isloh qilinishi deb baholash mumkin. Sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat protsessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

Bizning mamlakatimizda ham jinoiy jazoning maqsadi asosan ana shulardan iborat. Yuqoridagi qonun mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, gap jinoiy jazoning ozligi yoki ko'pligi, qattiqligi yoki yumshoqligida emas, uning muqarrarligidadir. Har bir jinoyatga og'ir jazolar belgilash bilan jinoyatchilikni tugatib bo'lmaydi, balki jamoatchilikda norozilik kayfiyati tug'iladi xolos. Undan tashqari, ifodali qilib aytganda, «suv omborining to'g'oni osmonga etsa ham, suvning doimiy urib ketish xavfi qolaveradi».

Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan jinoiy jazo siyosatini liberallashtirish borasida ko'rayotgan chora–tadbirlari har tomonlama o'rinlidir.

Jinoiy jazolarni liberallashtirishdan maqsad, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda boshqa engilroq jazo tayinlash yo'li bilan jamiyatga qaytarish imkoniyatini yaratish, ya'ni uni axloqan tuzatishdan iborat. Aynan shu maqsadlarda bugungi kunda dunyo miqyosida huquqqa va u bilan bog'liq barcha hodisalarga baho berishda «liberitar» (ya'ni erkinlikni ta'minlash vositasi sifatida) yondoshuv ustuvor mavqeni egallamoqda. Bu konseptsiyaga asosan huquq, avvalo,

erkinlik va adolat mezoni, ularni ta'minlash vositasi, aholi xavfsizligi hamda har bir fuqaroning mulkiy mustaqilligini ta'minlovchi normativ tizimdir.¹

Shuning uchun davlatning jinoyatga oid siyosatini amalga oshirish borasidagi har bir qo'ygan qadami, jinoyat qonunchiligini va uni qo'llash amaliyotini rivojlantirishdagi har bir bosqich uning samaradorligi nuqtai nazaridan ham, uning qonuniyligi, insonparvarligi tamoyillariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ham baholanishi kerak. Zero, insonparvarlik, shubhasiz, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati kontseptsianing asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi.²

Shuning uchun jinoiy jazo va uning samaradorligini tadqiq qilgan barcha kriminalist olimlar jinoyatchilikka qarshi kurashda, muhimi jazoning qattiqligida emas, balki bitta ham jinoyat sodir qilgan shaxs javobgarlikka tortilmay qolganligidir, deb to'g'ri ta'kidlaganlar yoki boshqacha qilib aytganda, liberallashtirish – bu jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishni to'xtatish degani emas. Aksincha, liberallashtirish - u har bir jinoiy qilmish uchun jazoning muqarrarligidadir³.

Bu borada Prezidentiimiz ta'kidlaganidek, «og'ir jazo, ayniqsa, fuqarolarni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini oshirib ko'rsatish o'rinsiz ekanligini hayotning o'zi isbotlamoqda. Jinoyatchilikning oldini olish unga qarshi kurashish samaradorligi, jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda qonunni buzgan shaxs jazoning muqarrarligini nechog'li anglashiga bog'liq»⁴.

Darhaqiqat, H.T.Odilqoriev, I.T.Tulteevar ta'kidlaganidek, jinoiy jazo– barcha ijtimoiy kasalliklarga davo bo'ladigan vosita emas. Ayrim holatlarda u

¹ **Odilqoriev H.T.**, Tulteev I.T., Jinoiy-huquqiy siyosatni liberallashtirish: zarurat va omillar. // Huquq – Pravo – Law.- 2002.- №1.- B.7.

² **Pulatov Yu.S.** O gumanizatsii uslovnogo osujdeniya v ugovnom i ugovno-ispolnitelnom zakonodatelste. // Huquq-Pravo-Law. -2002.- №2.-C. 81-83.

³ **Abdurasulova Q.R.** Liberalizatsiya ugovnogo zakonodatelstva – vajneyshiy etap sudebno-pravovoy reformi v Respublike Uzbekistan. //Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugovnix nakazaniy. Materiali mejdunarodnoy konferensii. –Tashkent. 2008. – s.52

⁴ **Karimov I.A.** Adolat – qonun ustuvorligida. // Xalq so'zi. 30 avgust. 2001 yil.

davolashdan ko'ra, hatto ko'proq zarar keltiradi. Zero, u kasallikni yanada chuqurroq yashirishi, uni keragidan ortiq xavfli shaklga aylantirishi mumkin. Katta ijtimoiy xavf tug'dirmaydigan qilmishi uchun uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan odamning jazoni o'tash joylaridan darg'azab, alamzada va jamiyatga nisbatan norozi kayfiyatda qaytishi tabiiy bir holdir. Bunday shaxslarni «qayta tarbiyalandi» deb bo'lmaydi.¹³ Shu jihatdan, «...jinoiy jazolarni liberallashtirish siyosatining mohiyati quyidagilardan iborat: jinoiy huquqbuzarliklarga nisbatan jazo choralarini engillashtirish yo'ldan borar ekan, davlat uhuquqbuzarliklarga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirmaydi. Qora qoraligicha, oq oqligicha qoladi. Odamlarga, inson huquqlariga munosabat o'zgaradi. Sodir etgan qilmish qanchalik og'ir bo'lmasin, huquqbuzarga eng avvalo, inson, huquq va erkinliklar egasi, oila a'zosi, ona yoki ota, qiz yoki o'g'il, jamiyatning yo'ldan ozgan a'zosi deb qaraladi.²

Qonunga ko'ra, jinoyatlarning 460 turidan 196 tasi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar qatoriga, 12 turdagi jinoyatni og'ir toifadan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga, o'ta og'ir jinoyatlar toifasidagi 7 jinoyat og'ir jinoyatlar toifasiga kiritildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ham, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatdan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat toifasiga kiritildi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida olib borilayotgan faoliyat xalqimiz boy tarixi va huquqiy tajribasi ruhiyatidan kelib chiqqan holda yuritilmoqda. Bu siyosatda jiddiy yangilik bo'lib, amaldagi Jinoyat kodeksi 66-1 moddasi, ya'ni yarashganligini munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning kiritilishi bo'lib, ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va etkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Dastlab ushbu qonun qabul qilinganda, faqat 26 ta jinoyat uchun tomonlarning yarashganligi munosabati bilan

¹ **Odilqoriev H.T.**, Tulteev I.T. Jinoiy-huquqiy siyosatni liberallashtirish: zarurat va omillar.// Huquq-Pravo-Law.-2002.-№1.-B. 70.

² **O'razaev Sh.** Ukrepit zashitu prav cheloveka. // Narodnoe slovo. 2001. 10 noyabr.

javobgarlikdan ozod etish mumkin bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining 2007 yildagi qonuniga ko'ra 30 ta jinoyat uchun, 2009 yildagi qonuniga ko'ra, ya'ni liberallashtirishning keyingi bosqichlarida 42 ta jinoyatlar uchun tomonlarning yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun ham tomonlarning yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ta'kidlash kerak, dastlab ushbu qonun qabul qilingan vaqtda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun tomonlarning yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi qoidalar nazarda tutilmagan edi. Faqat O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 27 avgustdagi Qonuniga ko'ra, ushbu jinoyat uchun, ya'ni JK 125-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan qilmish uchun tomonlarning yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutildi. Unga ko'ra, agar farz farzandlikka bola oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, etim yoki ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun bilan qo'riqlanadigan sirini oshkor qilganlik uchun yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Og'irlashtiruvchi holatlarda (JK 125-moddasining 2-qismi) ushbu qoidani qo'llash mumkin emas.

O'z navbatida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun, qonunda bir qator huquqiy shartlar nazarda tutilgan:

- birinchidan, ushbu jinoyat sodir qilgan shaxs o'z aybiga iqror bo'lishi kerak;
- ikkinchidan, jabrlanuvchi bilan yarashishi kerak;
- uchinchidan, etkazilgan zararni bartaraf etishi kerak¹.

Ta'kidlash kerak, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning jinoyat qonuniga kiritilishi, jinoyat huquqi siyosatida ham huquqiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzalishida va uning to'g'ri yo'lga kirishida bu qoida huquqiy ahamiyat kasb

¹ Aslida, farzandlikka olish sirini oshkor qilish jinoyatida farzandga etkazilgan ma'naviy zarar hech qanday o'lchamlarga ega emas, ushbu zararni o'z navbatida bartaraf etib bo'lmaydi;

etadi.¹ Demak, jinoiy jazolarni liberalashshtirish borasida olib borilayotgan faoliyat xalqimiz boy tarixi va huquqiy tajribasi ruhiyatidan kelib chiqqan holda yuritilmoqda.

Yarashganik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish amaldagi JKga yangilik sifatida kiritilgan bo'lsa-da, davlatchiligimiz tarixida buni yangilik deb bo'lmaydi. Jumladan, musulmon huquqiy manbalaridan biri «Muxtasar»da «sulh», «iqror» kabi tushunchalar mavjud bo'lib, «sulh va kelishuv shundayin ahd (shartnoma)ki, u jazoni daf' qilur.

«Birovning boshini yorganligi yo qo'lini sindirganligi uchun ma'lum miqdorda mol berib, sulh kelishuv durust, ul jonga zarar etkazuvchi xoh bilib bo'lsin, xoh bilmay»². Bundan ko'rinib turibdiki, shariatda ham ijtimoiy xavfliligi kamroq qilmishlar uchun kelishuv borasida jazodan ozod qiliningan. YOki bu borada Buyuk Sohibqiron Amir Temurning Amir Xudoydodning so'zlarini keltirib, «Agar dushmaning bosh urib, panohingga kelsa, rahm qilib, yaxshilik va muruvvat ko'rsatgil» degan so'zlarida ham kechirish ma'nosini ko'rish mumkin.³ Demak, bizning qonunlarimizda shaxsning o'z aybiga iqror bo'lganligi, jinoyat tufayli etkazilgan zararni to'liq qoplaganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish azal-azaldan muhim ahamiyat kasb etib kelgan. YUqoridagilarga ko'ra ta'kidlash kerak, «mazkur institutning joriy etilishi, xalqimizning mentaliteti, bag'rikengligi va kechirimli tabiatiga to'la-to'kis mos keladigan holatdir».⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida: «...yarashuv institutining joriy etilishi qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy omil bo'ldi», deb shu jihatdan to'g'ri ta'kidladi.

Darhaqiqat, yarashuv institutining qonunda mustahkamlanishi, jabrlanuvchining huquqlarini ishonchli himoyalash, jinoiy javobgarlikdan ozod

¹ **Axrorov B.** Yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat qonunchiligining insonparvarlik tamoyillaridan biri. // Sud –huquq islohoti: nazariya va amaliyot mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2001. 25-bet

² **Muxtasar** (shariat qonunlariga qisqacha sharh). – T.: Cho'lpon, 1994. – S. 279.

³ **Temur Tuzuklari.** – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991. 90-b.

⁴ **Odilqoriev H.T.** Sud-huquqiy tizimini liberalashtirish marralari. //Otmna smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugolovnix nakazaniy. Materiali mejdunarodnoy konferensii. –Toshkent. 2008.111 –b.

etish institutining kengroq qo'llanishiga imkoniyat yaratdi. Chunki muqaddam qonun chiqaruvchi belgilab bergan protsessual munosabatlarga jabrlanuvchining ishtiroki cheklab qo'yilgan edi. Jabrlanuvchiga berilgan bunday huquq aholining kriminallasuvi darajasi pasayishiga, sudlanganlikning salbiy oqibatlari kamayishiga, mehr-muruvvatlilik kabi insoniy fazilatlarni kengroq namoyon etilishiga olib kelmoqda.

Yuqoridan ko'rinadiki, «Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi o'ziga xos tarixga ega bo'lib, amaldagi Jinoyat qonunchiligida u alohida xususiyatlarga ega va ular quyidagilarda ifodalanadi:

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat qonunida ushbu jinoyat «Oila, yoshlarga va axloqqa» qarshi jinoyatlar tizimida mustahkamlandi;

- ikkinchidan ushbu qilmishning sodir etilishi natijasida amaldagi jinoyat qonuniga ko'ra, avvalo oila manfaatlariga, shuningdek, bolaning ma'naviy va ruhiy rivojlanishiga zarar, ta'sir etishi e'tiborga olindi;

- uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuniga ko'ra, ushbu jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar guruhiga kiritilgan.

1.4. Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik masalalari

Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaga qarshi jinoyalar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada avvalo, xorijiy mamlakatlarda farzandlikka olish tartibi, shartlari, usullari to'g'risida to'xtatilib o'tish lozim.

Frantsiya oila qonunchiligida farzandlikka olishning ikki usuli mavjud bo'lib, ular to'liq va cheklangan farzandlikka olishdir. To'liq farzandlikka olishda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi shaxsiy va mulkiy huquqiy munosabatlarda tug'ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladi. Farzandlikka

olinuvchiga farzandlikka oluvchining familiyasi beriladi, uning ismi o'zgartirilishi mumkin, o'zaro aliment to'lash majburiyati vujudga keladi va h.k. Cheklangan farzandlikka olishda esa, farzandlikka olinuvchi va uning tug'ishgan qarindoshlari o'rtasida qisman huquqiy aloqa mavjud bo'ladi. Farzandlikka olinuvchi tug'ishgan qarindoshlaridan so'ng meros olish huquqi va mehnatga layoqatsiz ota-onasini ta'minlash majburiyati saqlab qolinadi. Demak, cheklangan tartibda farzandlikka olingan farzandlikka olinuvchi o'zining ota-onasi hamda farzandlikka oluvchidan so'ng meros olish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Xuddi shunday tartibda ya'ni, to'liq va cheklangan tartibda farzandlikka olish Polsha, Chexiya, Ruminiya, Bolgariya kabi davlatlarda ham mavjud. Har ikkala usul ham o'zining xususiyatlariga ega bo'lib, ularning huquqiy oqibatlari bir xil bo'lmaydi. Cheklangan tartibda farzandlikka olishda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchining meros huquqiga oid huquq va majburiyatlarida cheklashlar bo'ladi

MDH davatlari jinoyat qonunlarida ham «Farzandlikka olish sirini oshkor qilish» ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 155-moddasida, Armaniston Jinoyat kodeksining 169-moddasida, Gruziya JK ning 175-moddasida, Qirg'iziston JK ning 160-moddasida, Ozorbayjon JK ning 175-moddasida, Qozog'iston JKning 135-moddasida, Moldova JK ning 204-moddasida, Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 172-moddasida, Ukraina JKning 168-moddasida¹ ushbu jinoyat uchun javobgarlik qoidalari nazarda tutilgan.

Ushbu davlatlar Jinoyat qonunining aksariyat qismida farzandlikka olish sirini kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo'lgan shaxs tomognidan sodir etilgan holatlarda muayyan huquqdan

¹ **Uglovniy Kodeks Rossiyskoy Federasii.** – Moskva:Yurist, 1996. ;**Uglovniy kodeks Armenii.** - Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2001.;**Uglovniy Kodeks Respubliki Kazaxstan.** –Kazaxstan.: Jetu-Jargi, 1997. – 320 s. ;**Uglovniy Kodeks Ukraini.**-Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press,2001.- 391s.;**Uglovniy Kodeks Respubliki Tadjikistan.** -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press,2001. -408 s.;**Uglovniy Kodeks Azerbaydjanskoy Respubliki.** -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2001. -356 s.;**Uglovniy Kodeks Gruzii.** –Sankt-Peterburg. Yurid sent.press. 2002. -407 s.;**Uglovniy Kodeks Moldavii.**- Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2003.;**Uglovniy Kodeks Kirgizskoy Respubliki.** - Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2002.

mahrum qilish jazosi majburiy tartibda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonuni bo'yicha muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ushbu holda majburiy tartibda emas, balki sudning ixtiyoriga berilgan. Bizning nazarimizda ushbu jinoyat yuqoridagi og'irlashtiruvchi holatlarga ko'ra, sodir etilganda albatta, qo'shimcha jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun bu borada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasining ikkinchi qismiga ushbu jazoni majburiy qo'shimcha jazo sifatida kiritish to'g'ri bo'lar edi deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasining Oila qonunchiligi chet ellik fuqarolar tomonidan farzandlikka olish uchun cheklovlar bermaydi, biroq, xalqning manfaatlaridan kelib chiqib o'z fuqarolari tomonidan farzandlikka olishlari uchun ustunlik huquqi beradi. Xorijiy davlatlar, jumladan MDH mamlakatlarining ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarning chet elliklar tomonidan farzandlikka olishlari jamoatchilik orasida ko'plab bahs-munozaralar, tanqidlarga sabab bo'layotganligi ma'lum.

Jumladan, oxirgi 12 yilda chet elliklar tomonidan 19 mingdan ziyod ukrainalik bolalarni bolalar uyidan farzandlikka olishgan. Ularning ko'pchiligi AQSH, Isroil, Italiya, Chexiya, Frantsiya, Germaniya, Belgiya va Shveytsariyaga olib ketilgan. Ularning 1400 nafari taqdiri haqida konsullik xizmatlarida ular 18 yoshga to'lgunlaricha Ukraina fuqarolari sanalishsa-da, hech qanday ma'lumot mavjud emas. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa, farzandlikka olish siri muqaddas sanaladi. Hattoki, AQSHda farzandlikka olingan bolalar haqida ma'lumot yig'ish ham qonunga asosan ta'qiq qilinadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, farzandlikka olinuvchilar huquqi qonun bilan kafolatlangan. Farzandlikka olish nafaqat milliy davlatchilik miqyosida balki, xalqaro miqyosda ham bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish borasida bir qator diqqatga sazovor ishlar qilinmoqda. Albatta, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, farzandlarimiz - bizning g'ururimizdir. Bu har

bir inson uchun tushunarli, albatta. Biz haqiqatan ham o'z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxrlanishni istasak - ular zamonaviy bilim va tajribaga ega, iymonli-e'tiqodli bo'lishlariga, Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishlarini davom yettirishlariga erishishimiz lozim.

2-BOB. FARZANDLIKKA OLIISH SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR

2.1. Kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik

Ushbu og'irlashtiruvchi holatlarni o'rganish uchun, avvalo, og'irlashtiruvchi holatlar to'g'risida to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, javobgarlikka tortishda eng avvalo, jinoyat sodir qilish hodisasining barcha holatlarini, uni sodir qilgan shaxsni sodir qilgan qilmishda jinoyat qonunida nazarda tutilgan barcha belgilarni to'la va batafsil aniqlash, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish qonuniylik va adolatlilik printsipiga rioya qilishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bunda aybdor tomonidan jinoyat sodir qilinganligiga, shaxsning harakati yoki harakatsizligi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishga alohida ahamiyat beriladi. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar, o'z navbatida jazoni kuchayishiga sabab bo'ladi. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar – bu Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan, sodir etilgan qilmishning obyektiv va subyektiv belgilariga ko'ra jazoni kuchayishiga sabab bo'ladigan holatlardir.

Farzandlikka olish sirini oshkor qilishning JK 125-moddasining 2-qismi «a» bandiga ko'ra subyektlari faqat muayyan kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra sir saqlashi shart bo'lgan shaxslar kiradi. Bunday shaxslar qatoriga shifokorlar, akusherka va tibbiy hamshiralar, tug'ruqxona, shifoxonalar, bolalar bog'chasi, maktab o'qituvchilari, ya'ni bolalar o'qiydigan, davolanishi mumkin bo'lgan joylardagi xodimlar kiradi. Shuning bilan biraglikda ushbu jinoyatning subyekti xizmat mavqeiga ko'ra sir saqlashi shart bo'lgan shaxslar, masalan, FHDYO xodimlari, vasiylik yoki homiylik organlari xodimlari, shuningdek farzandlikka olish borasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etgan har qanday shaxslar bo'lishi mumkin.¹

¹ **Kadirov M.M.** Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast. – Tashkent, 1997. – S.87.

2.2. G'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik

G'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik masalalari muhim va murakkab masalalardan biri bo'lib shaxsni javobgarlikka torishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, g'arazgo'ylik yoki past niyatlar deganda nimalar tushunilishini anglab olish zarur.

Ushbu muammoni tadqiq qilgan ko'pchilik mualliflar g'arazgo'ylik, shaxsning jinoyat sodir etishi orqali u yoki bu moddiy foyda, jumladan, pul, qimmatli qog'ozlar, mulk, mulkka bo'lgan huquq, yashash joyiga bo'lgan huquq va hokazolarga ega bo'lishi yoxud jabrlanuvchiga yoki boshqa shaxsga berilishi kerak bo'lgan mulkni o'zida olib qolish masalasidagi fikrlari bir xil.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ushbu javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatda g'arazli motiv hech bo'lmaganda yagona belgilovchi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Agar farzandlikka olish sirini oshkor qilish boshqa niyatlarda: sub'ektga tegishli bo'lgan mulkni ushlab qolish, qarzni qaytarib bermaganlik uchun sirni oshkor qilish, kabilar g'arazli maqsadlarda oshkor qilish deb hisoblanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining 88 ta moddasida g'arazli maqsadlarda jinoyat sodir qilinganligi uchun, shu jumladan 28 ta moddasida g'arazli maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida va 68 ta moddasida og'irlashtiruvchi holat bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zining tarqalganligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadigan past niyatlarda sodir qilinadigan jinoyatlar kiradi. Past niyatlarda jinoyat sodir qilishga odatda qasd olish, ko'rolmaslik, mansabparastlik, gina, g'azab, nafrat, shuhratparastlik kabilarni kiritish mumkin. Bularning barchasi umuman e'tirozli emas va bu motivlar umumqabul qilingan axloqiy va xulqiy qoidalarga o'zbek xalqining an'analarga va O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan etnik va xulqiy qoidalarga ziddir. Shunga ko'ra ijobiy printsiplarga qo'pol ravishda zid bo'lgan xulqiy motiv past niyatlar deb hisoblanishi kerak. Jumladan, albatta qasd olish,

axloqiy inkor qilish motivlari past niyatlar deb hisoblanishi mumkin. Qasd-qasdga dushman. Ayniqsa, bunday his unga nisbatan o'ta shafqatsizlik tufayli, jabrlanuvchining xulqi tufayli, hech qanday sababsiz yuzaga kelgan zo'rlik ishlatish harakatlarida, sub'ektga yoki uning yaqinlariga nisbatan og'ir oqibat yuz beraganida past niyatlar deb hisoblashga asoslar yo'q.

Sub'ektning qadr-qimmatini kasmitadigan axloq normalarin printsiplariga xilof bo'lgan rashk past niyat hisoblanmaydi. Ammo rashk o'z asoslariga ega bo'lmasa va undan o'ch olish, zo'rlik ishlatish niqobi ostida foydalanilgan, sub'ektda jinoyat sodir etish niyatlarini keltirib chiqargan bo'lsa, past niyatlar borligiga shubha qolmaydi.

2.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqqanligi uchun javobgarlik

Ma'lumki, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatning o'ta ijtimoiy xavfliligi kelib chiqqan oqibatning og'irligi bilan belgilanadi. Ammo ko'pchilik jinoyatlarda og'ir oqibatlar, jumladan, shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarda og'ir oqibatlar jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi JK ning 125-moddasining ikkinchi qismida farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqishi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 40 dan ortiq moddalarida ushbu holat shuningdek, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan. Ularning ko'pchiligi odamlarning hayoti va sog'lig'iga zarar etkazish va boshqalarga tegishlidir. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun og'ir oqibatlarning kelib chiqishi deganda esa, oilaning buzilishi, hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilishi tushuniladi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, og'ir oqibat baholash kategoriyasi bo'lib, turli odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Bu har bir jinoyatda shunday oqibatning bor yoki yo'qligini aniqlashda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. A.Qodirov og'ir oqibatlarni quyidagicha guruhlariga bo'lib tasniflash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi:

A) Har doim va har qanday sharoitda ham og'ir oqibat deb hisoblanadiganlar.

B) Alohida turkumdagi va turdagi jinoyatlar uchun xos bo'lgan og'ir oqibatlar¹. Shubhasiz, bunday oqibatlarga shaxsga og'ir zarar etkazish, hayotdan mahrum qilish, hech bo'lmaganda bir kishining badaniga og'ir shikast etkazish jinoyatlarini kiritish mumkin. Bunday oqibatni ushbu masalani tadqiq qilgan barcha mualliflar og'ir oqibat deb hisoblaydilar.²

Voyaga yetmaganlarning manfaatlarini butun jahonda himoya qilinishini inobatga olib, ikki yoki undan ortiq shaxslarning badaniga o'rtacha og'ir shikast etkazish ham og'ir oqibat, deb hisoblanishi kerak. SHuningdek, jiddiy zarar etkazish ham og'ir oqibatlar deb hisoblanishi kerak. O'z-o'zidan ma'lumki, jinoyatlarning og'ir oqibatlarini ro'yxatini tuzib chiqishning iloji yo'q. Har bir alohida holda bunday oqibatlarni haqiqatan ham etkazilgan zararning miqdoriga qarab jabrlanuvchining oqibatni qanday qabul qilganligiga qarab, sodir qilgan qilmishga jabrlanuvchining reaksiyasiga qarab (ruhiy kasal bo'lib qolganligi, oilaning buzilganligi, farzandlikka olingan shaxsni o'zini o'zi o'ldirganligi, ijtimoiy maqomni yo'qotib qo'yganligi va boshqalar) sud e'tiborga olgan holda hal qiladi. Og'ir oqibatlar moddiy xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin.

Jinoyatning oqibati deganda nimani tushunish kerak? Bu jinoiy qilmishning (harakat yoki harakatsizlikning) oqibatlari bo'lgan tashqi muhitdagi o'zgarishlar yoki jinoyat sodir etilganidan keyin qilingan harakatlar yoxud uni yashirishga suiqasd qilishga qaratilgan harakatlar yoki qarshilik ko'rsatganligi uchun jabrlanuvchidan qasd olish yo'lida qilingan harakatlar yoxud jabrlanuvchining o'zining harakatlari tushunilishi kerak. Aybdorning jinoyati bilan sababiy bog'lanishda bo'lgan va aybdor buni bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgan jabrlanuvchining badaniga u yoki bu darajada jarohat etkazish ham oqibat hisoblanadi.

¹ **Qodirov A.** Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar. –Toshkent:Adolat,1998. 77-b.

² **Xalikov A.** Ugolovnaya otvetstvennost za posyagatelstva na interesy nesovershennoletnix. – Nukus, 2011. 111-b. ; **Qodirov A.** Ko'rsatilgan manba. 77-b.

Yuqoridagilarga ko'ra, farzandlikka olish sirini oshkor qilinishi natijasida turli oqibatlar kelib chiqishi mumkin: farzandlikka olinganning o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilishi, o'zini o'ldirishi, ruhiy kasallikka chalinishi, yashash joyini majburan almashtirishi va shunga o'xshash holatlar og'ir oqibatlar deb hisoblanishi mumkin.

2.4.Farzandlikka olish sirini oshkor qilishning oldini olish choralari

Demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi milliy qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilgan. Qonun ustuvorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yosh avlod huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Bu borada o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada oilaning ahamiyati beqiyosdir. Zero oila jamiyatning mohiyatini belgilaydi va shuning bilan birga o'zi ham jamiyatning hosilasi bo'lib, jamiyat ta'sirini o'zida ifoda etadi.¹

Oilaga oila qarshi sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning nazariy bazasi oila imkoniyatlarini oila qarshi qilingan jinoiy xulqning sabablarini bartaraf qilish imkonini beradigan hamda oilaviy kriminogen omillarning umumijtimoiy miqyosda hamda konkret oila kriminologiyasini ishlab chiqishda ifodalanadigan kriminologik kontseptsiyasini yaxshilashdan iborat.²

Oilaviy munosabatlarni kriminologik jihatdan yaxshilash umumiy xususiyatdagi choralar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir. Chunki oilaga ijtimoiy ijobiy ta'sir qilish orqali faqat oila davrasidagi jinoyatlarnigina emas, balki boshqa jinoyatlarning ham oldi olinishi mumkin.

¹ **Usmonaliev M., Karaketov Y.** Kriminologiya. – Toshkent, 2001. – 337 b.

² **O'razaliev M.Q.** Oilaga qarshi jinoyatlarning oldini olishning kriminologik choralari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2005. -35 b.

Oilaning boshqa bir jihati ham borki, jinoiy xulqqa moyillikni juda tez shakllantirishi ham mumkin. SHuning uchun oila davrasida jinoyatlarning oldini olishning maxsus choralari haqida gapirishdan oldin quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

- oilaga va uning a'zolariga ta'sir qiladigan salbiy hodisalarni bartaraf qilish sharoitini yaratish;

- muayyan nizoli vaziyatlarni bartaraf qilish;

- oilaga domimiy ravishda kriminologik choaralar ta'sirini rivojlantirib borish, oila himoyasini va braqarorligi Resupblika va mahalliy darajada ta'minlash yanada samarali choralarini ishlab chiqish;

- oilaga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni hayot talablariga qarab rivojlantirib borish. Bu borada «oilaga qarshi jinoyatlarni oldini olish borasida maxsus qonun» qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi;

- ma'lumki, farzandlikka olish Oila kodeksining 151-moddasiga ko'ra, farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi. Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (45-modda), Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konventsiya (3, 11,12, 21, 35 –moddalar) va O'zbekiston respublikasining «bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (11-modda) hamda «Sudlar to'g'rsida»gi (9-modda) qonunlari talablaridan kelib chiqib, farzandlikka olish masalasining mustaqil, xolis va odil sudlov organlariga berilishi bola huquqlarining to'liq himoyalaniishi va har qanday noqonuniy farzandlikka olish holatlari, shuning ushbu sirni oshkor bo'lish holatlarini oldini olishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda farzandlikka olishning sud tartibida amalga oshirilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan sud tomonidan farzandlikka olishda suiiste'molchiliklar qilishning oldi olinishi, turli sansalorliklardan voz kechishga, shuningdek, farzandlikka olishning nafaqat qonuniy bo'lishi balki, voyaga yetmaganlarning manfaatiga qay darajada mos kelishini belgilashi

mumkin. Sud tomonidan barcha holatlarga oqilona baho berilishi, shuningdek, farzandlikka oluvchilarning farzandlikka olishga loyiqligini tekshirish bolaning kelgusidagi taqdiriga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi.

XULOSA

Mamlakatimizda inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ijtimoiy himoyani amalga oshirish, oilani mustahkamlash, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning rivojlanishi jarayonida farzandlikka olishni huquqiy tartibga solish muammolarini o'rganish, tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- farzandlikka olish natijasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar tahlili shuni ko'rsatadi, buning natijasida farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi o'rtasida oilaviy munosabatlar vujudga keladi. Aksariyat odamzodning oilada tavallud topishini, oilaviy tarbiyaning ahamiyatini hisobga oladigan bo'lsak ayniqsa bola hali go'dakligidayoq ota-ona mehri-muhabbatini olib shaxs sifatida kamol topishida o'rni beqiyosdir. Demak, farzandlikka olish oilaviy tarbiyalash shakli bo'lib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan ustunligi bilan farq qiladi;

- farzandlikka olishning qonun bilan qo'riqlanadigan sirlarini oshkor qilish jinoiy jazolanadigan qilmishni vujudga keltiradi;

- jinoiy javobgarlikni vujudga keltiradigan farzandlikka olish sirini oshkor etish, farzandlikka olgan shaxslarni haqiqiy ota-onasi emasligini (og'zaki, yozma tarzda yoxud matbuot va boshq usullar orqali) oshkor etish, mazkur axborot farzandlikka olgan shaxsning erkiga qarshi oshkor qilinganda yoki ular mavjud bo'lmaganda homiylik va vasiylik idoralarining ruxsatisiz oshkor qilingan holatlarda o'z ifodasini topadi;

- oilaga qarshi jinoyatlar tizimida jinoyatning ushbu turiga yashirinlik (latentlik) xos, ya'ni fuqarolarning jinoyat sodir etilganligi fakti to'g'risidagi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishdagi faolligi yetarli darajada emas, ko'pgina hollarda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar javobgarlikka tortilmay qoladilar, shuning uchun ham umumiy jinoyatchilikda ushbu turdagi jinoyatlarning ko'rsatkichi kam, bu borada jinoyat ishlari bo'yicha

Samarqand shahar sudining 2012 yildagi arxiv materiallari bilan tanishganimizda, deyarli birorta bu boradagi jinoyat ishlariga duch kelmadik.

Yuqoridagilar bilan birga oilaga qarshi jinoyatlar tizimida ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish borasida nazarimizda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- oilaga va uning a'zolariga ta'sir qiladigan salbiy hodisalarni bartaraf qilish sharoitini yaratish;
- muayyan nizoli vaziyatlarni bartaraf qilish;
- oilaga domimiy ravishda kriminologik choralar ta'sirini rivojlantirib borish, oila himoyasini va barqarorligi Respublika va mahalliy darajada ta'minlash yanada samarali choralarini ishlab chiqish;
- oilaga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni hayot talablariga qarab rivojlantirib borish. Bu borada oilaga qarshi jinoyatlarni oldini olish borasida maxsus qonun qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi;
- farzandlikka olish Oila kodeksining 151-moddasiga ko'ra, farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (45-modda), Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konventsia (3, 11, 12, 21, 35 –moddalar) va O'zbekiston respublikasining «bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (11-modda) hamda «Sudlar to'g'risida»gi (9-modda) qonunlari talablaridan kelib chiqib, farzandlikka olish masalasining mustaqil, xolis va odil sudlov organlariga berilishi bola huquqlarining to'liq himoyalaniishi va har qanday noqonuniy farzandlikka olish holatlari, shuning ushbu sirni oshkor bo'lish holatlarini oldini olishga xizmat qilmoqda, deb o'ylaymiz.

Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

Farzandlikka olish sirini oshkor qilish, kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan

holda, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo'shimcha jazo sifatida majburiy tartibda tayinlanishi ushbu moddaning ikkinchi qismi sanksiyasida o'z aksini topishi kerak.

Qolaversa, deyarli ko'pchilik MDH davlatlari qonunchiligida, jumladan, Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalarida farzandlikka olish sirini kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra saqlashi shart bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilsa, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi majburiy tartibda ko'rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.1. Rahbariy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Vazirlar mahkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 31 avgust. № 173 (4326).
3. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oltinchi sessiyasidagi nutqi. // Xalq so'zi. 2001. 30 avgust.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.//O'zbekiston ovozi. 2005.29 yanvar.

II. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalar, normativ-me'yoriy hujjatlar

1. Dadaboeva J.A. Oila–davlat himoyasida. //Istiqlol davrida oila qadriyatlarining transformatsiyalashuv jarayonlari mavzusidagi konferentsiya materiallari. – Farg'ona, 2007.- B.99-101.
2. Dadaboeva J.A. Yoshlar tarbiyasiga ma'naviy yangilanishlar ta'sirining ayrim masalalari. //Barkamol shaxsni shakllantirishning ilmiy-uslubiy muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Farg'ona,2009. - B.183-184.
3. Dadaboeva J.A. Ma'naviy merosimizning inson tafakkurini shakllantirishdagi o'rni. //Abdulla Avloniy va zamonaviy pedagogika muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-anjuman materiallari. –Farg'ona, 2008. -B.219-221.

4. Dadaboeva J.A. Farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar. // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. -Toshkent, 2008. -№3-4. -B.15-18.
5. Dadaboeva J.A. Farzandlikka olishga to'sqinlik qiladigan holatlar. // Fan va yoshlar. -Toshkent, 2009. -№ 3. -B.41-44.
6. Dadaboeva J.A. Farzandlikka olishning huquqiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlari. // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. -Toshkent, 2009. -№1-2. -B.33-35.
7. Farzandlikka oluvchilarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi. //-Toshkent, Yosh olimlarning ilmiy maqolalari to'plami. 2010. -№2. -B.28-34.
8. Dadaboeva J.A. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari. //TDYUI Axborotnomasi, -Toshkent, 2010.- №2, -B.53-58.
9. Dadaboeva J.A. Farzandlikka olish tartibini takomillashtirishning ayrim masalalari. //Sud huquq islohotlari mavzusidagi ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, 2010 yil 27 may.
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –Toshkent, 2012.
11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga sharhlar. –Toshkent: Adolat, 1997.
12. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –Toshkent: O'zR kodekslari. 2006.
13. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mas'. muharrir M. Usmonaliev .- Toshkent: Adolat. 1988.
14. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent, 2005.
15. Rustamboev M. Jinoyat huquqi. Maxsus qism.- Toshkent, 2003.
16. Rustamboev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 5tom. – Toshkent: Ilm Ziya, 2010. 322-b.
17. Rustamboev M.X. Toxirov F. Kodirov A. Obstoyatelstva, otyagchayushie

nakazanie po ugolovnomu zakonodatelstvu Respubliki Uzbekistan. – Toshkent, 2001.

18. Rustamboev M.H. Jinoiy jazolarni liberallashtirish-davr talabi va istiqbolda takomillshatirish muammolari. Sud-huquq: nazariya va amaliyot. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -Toshkent, 2001.

19. Qodirov A. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar. Toshkent:Adolat, 1998. -116 b.

20. Ugolovniy kodeks Respubliki Kazaxstan. –Kazaxstan.: Jetu-Jargu, 1997. – 320 s.

21.Ugolovniy kodeks Ukraini.-Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press,2001.- 391s.

22. Ugolovniy kodeks Respubliki Tadjikistan. -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press,2001. -408 s.

23. Ugolovniy kodeks Azerbaydjanskoy Respubliki. -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2001. -356 s.

24. Ugolovniy kodeks Danii.-Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2001. -228 s.

25. Ugolovniy kodeks Ispanii. -M.:Zertsalo, 1998. -213 s.

26. Ugolovniy kodeks Gruzii. -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr.press, 2002. -407 s.

27. Ugolovniy kodeks Frantsii. -Sankt-Peterburg: Yurid. sentr. press, 2002. -648 s.

28. Ugolovniy kodeks FRG. -M.: Zertsalo, 2001. -200 s.

29. Xalikov A. Otvetstvennost' za posyagatelstvo na interesi nesovershennoletnix. –Nukus:Karakalpakstan, 1983.

30. Mirzabek R.Sh. Faktori i prichini (usloviya) okazivayushie polojitelnie i negativnie vozdeystvie na formirovanie nesovershennoletnix. // materiali nauchno-teoreticheskoy konferentsii. – Turkistan, 1997.

31. Ignatov A.I.Otvetstvennost za prestupleniya protiv sem'i i nrvastvennosti. – M. 1996.

32. O'razaliev M.Q. Axloqqa zid qilmishlar. // Hayot va qonun. Toshkent, 2005. №3. –B.71-72.

33. O'razaliev M.Q. Oilaga qarshi jinoyatlar. // Hayot va qonun. 2004. №2. –B. 60-61.

4. Inomjonova G. Oila kodeksi FHDYO organlari faoliyati. // Huquq va burch. 2008.№ 8-9. –B.86-87.

III. Elektron resurslar

1. <http://www.tsil.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.rambler.ru>.
5. <http://www.yandex.ru>.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
1-BOB. OILAGA QARSHI JINOYATLAR TIZIMIDA FARZANDLIKKA Olish SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA UMUMIY TAVSIFI.....	11
1.1. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normalar tushunchasi, rivojlanish tarixi.....	11
1.2. Oilaga qarshi jinoyatlar tizimida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik tushunchasi, umumiy tavsifi.....	27
1.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlikni liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	42
1.4. Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik masalalari.....	49
2-BOB. FARZANDLIKKA Olish SIRINI OSHKOR QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR TUSHUNCHASI, TURLARI	52
2.1. Kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik.....	52
2.2. G'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik.	54
2.3. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish natijasida og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi uchun javobgarlik.	56
2.4. Farzandlikka olish sirini oshkor qilishning oldini olish choralari.....	57
XULOSA	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	62